

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida

UDK: 377.1

TO‘RAQULOV LAZIZ TIRKASHEVICH

**KOLLEJ TALABALARIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK
TASHKILOTCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISH**

5A 140804 – Ijtimoiy pedagogika

**Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA**

Ish ko‘rib chiqildi va himoyaga
ruxsat berildi.
«Pedagogika» kafedrasini mudiri
prof. Hasanova K. _____

Ilmiy rahbar:

Dots. Ahrorov Yu.A. _____

« _____ » _____ 2012 y

M.O‘.

Samarqand – 2012

MUNDARIJA

Kirish	3
I BOB. KOLLEJ TALABALARIDA IJTIMOY PEDAGOGIK TASHKILOTCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI	
1.1. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish – pedagogik muammo sifatida.....	8
1.2. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish omillari.....	18
II BOB. KOLLEJ TALABALARIDA IJTIMOY PEDAGOGIK TASHKILOTCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH	
2.1. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini auditoriya mashg’ulotlari jarayonida shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish.....	35
2.2. Talabalarda ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini pedagogik faoliyat jarayonida shakllantirishda shaxsga yo’naltirilgan texnologiyalardan foydalanish.....	55
2.3. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari va uning tahlili.....	78
Xulosalar.....	84
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	87
Ilovalar.....	90

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng xalq ta'limining turli sohalarida xizmat ko'rsatayotgan mutaxassislarni tarbiyalashda o'qituvchi kadrlarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, Prezidentimiz I.A.Karimov "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" asarida ta'kidlaganidek, "Bizga maktabni bitirganlar emas, maktab tarbiyasini ko'rganlar kerak"[1:59]. Yana "Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch" asarida shunday so'zlarni ta'kidlaydilar: "Shuni unutmashimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq"[1:60].

Shunday ekan respublikamizda barkamol avlodni tarbiyalashga qaratilgan siyosatni amalga oshirish uchun bugungi kunda pedagog kadrlarga pedagogik nazariyani ya'ni o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalarni o'rganish bilan bir qatorda yuksak pedagogik mahorat, ijodkorlik hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini ham mukammal shakillantirishni talab etadi.

Bizga ma'lumki, o'qituvchilik kasbi uchun quyidagi 6 xil qobiliyat muhim hisoblanadi.

1. O'rtaga tusha bilish qobiliyati.
2. Tashkilotchilik qobiliyati.
3. O'zini idora eta bilish qobiliyati.
4. Mo'ljallay bilish qobiliyati.
5. Kuchlilik, zehnlilik.
6. Faoliyatga ijodiy yondasha bilish qobiliyati.

Ana shu qobiliyat xillaridan tashkilotchilik qobiliyatini kadrlarni shakillanishlarida qanchalik ahamiyatli ekanligini ko'rib chiqamiz.

Tashkilotchilik-murakkab sifat bo'lib, u kishilarning har qanday ongli faoliyatlarida va xulqlarida nomoyon bo'ladi.

Tadqiqot muammosining o'rganilganlik darajasi. Pedagogik adabiyotlarni o'rganganimizda F.A.Gonobolin, V.Slastenin, M.Ochilov kabi pedagog va psixologlar bevosita o'qituvchining tashkilotchilik faoliyati pedagogik asoslariga doir ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganliklariga guvoh bo'lamiz. Biroq, Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda interfaol usullardan foydalanishning pedagogik jihatlariga doir masala bilan hech qanday olim shug'ullangan emas.

Shuning uchun ham biz "Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish" mavzusini magistrlik disertasiya mavzusi sifatida tanladik.

Ilmiy tadqiqot predmeti: Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari.

Tadqiqot obyekti: Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqot maqsadi: Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning pedagogik jihatlarini ilmiy tadqiq etish.

Tadqiqotning ilmiy farazi. Agar:

- Auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladigan ta'limning nazariy va amaliy ahamiyati ilmiy asoslab berilsa, baholansa, uning ta'lim-tarbiyaviy jarayonidagi pedagogik jhati aniqlab berilsa;
- o'qituvchi shaxsida tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirishning shakl va yo'llari ilmiy asosda ishlab chiqilsa va eksperimental tadqiq etilsa;
- auditoriya va auditoriyadan tashqari ta'limning o'qituvchi tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning pedagogik tizimi uzluksiz tarzda oliy o'quv yurtlarining o'quv-tarbiyaviy jarayonida qo'llanilsa;

- oliy o‘quv yurtida o‘qitiladigan pedagogik fanlarni o‘qitish jarayonida o‘qituvchilarda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish jarayonining (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar) uzviyligi ta‘minlansa;
- ta‘limda an‘anaviy metodlar bilan bir qatorda ilg‘or pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida, samarali foydalanilsa;
- ta‘lim jarayonida talabalar tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning maqbul tizimi ishlab chiqilsa, talabalarda ijtimoiy muhim tashkilotchilik sifatlar jamiyat rivojiga mos tarzda shakllanadi.

Tadqiqot vazifalari:

- mavzu yuzasidan pedagogik manbalarni to‘plash;
- tadqiqot bazasi etib tanlangan oliy o‘quv yurtalari talabalarida tashkilotchilik mahoratini shakllantirish jarayonini kuzatish va pedagogik tahlildan o‘tkazish;
- olingan natijalarni umumlashtirib dissertasiya holiga keltirish.

Ilmiy-tadqiqotning metodologik asoslarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi, O‘zbekiston Prezidenti I.A.Karimov nutq va asarlarida bayon qilingan shaxs ma‘naviyatini shakllantirish, kadrlar tashkilotchilik mahoratini oshirishga doir g‘oyalar, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining barkamol inson tarbiyasiga oid qarashlari, barkamol shaxsni har tomonlama kamol toptirishga qaratilgan falsafiy, pedagogik, psixologik ta‘limotlar, ilmiy-pedagogik, metodik manbalar, shuningdek, “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, ta‘lim islohotlariga doir O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan me‘yoriy hujjatlar tashkil etadi.

Tadqiqot metodlari – tadqiqot mavzusiga oid pedagogik, pedagogik falsafiy, metodik adabiyotlar va ta‘lim mazmunini yorituvchi me‘yoriy hujjatlarni o‘rganish, tahlil etish; pedagogik kuzatuv, suhbat, pedagogik tashhis, ilg‘or pedagogik tajribalarni o‘rganish va umumlashtirish, matematik statistika.

Ilmiy tadqiqot uch bosqichda o‘tkazildi:

Birinchi bosqich (2010 yil sentabr-dekabr) da muammoga oid ilmiy pedagogik, falsafiy, metodik adabiyotlar o‘rganildi. Tadqiqotning maqsadi, obykti, predmeti, ro‘yobga chiqarish vazifalari aniqlandi. Tajriba-sinov o‘tkazish dasturi ishlab chiqildi. Dastlabki ma’lumotlar jamlandi, ilmiy ish poydevori yaratildi.

Ikkinchi bosqich (2011 yil yanvar-dekabr) da mavzu yuzasidan tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlari Samarqand 1-son Pedagogika kasb-hunar kollejida yuqorida tilga olingan metodlar asosida o‘tkazildi.

Uchinchi bosqich (2012 yil yanvar-may) da shakllantiruvchi tajriba-sinov vositasida tadqiqot muammosi yuzasidan ishlab chiqilgan uslubiyatning samaradorlik darajasi aniqlandi. Matematik-statistik metod yordamida tahlil etildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Talabalar tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda auditoriya va auditoriyadan tashqari tashkil etiladigan mashg‘ulot va tadbirlar, pedagogik amaliyotning o‘rni, tarbiyaviy imkoniyatlari, mazmuni, shakli va metodlari aniqlanganligi; talabalar tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga doir maqbul interfaol metodlar majmuasi hamda ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning nazariy ahamiyati. Oliy pedagogik ta’lim tizimida talabalar pedagogik mahoratini shakllantirishning pedagogik asoslariga doir tavsiyalar psixologiya fanidan o‘tiladigan ma’ruza matnlari, o‘quv, o‘quv uslubiy qo‘llanmalarni shakllantirishda ishlatilishi mumkin.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Dissertasiyada yoritilgan nazariy va amaliy g‘oyalardan umumiy pedagogika, pedagogik mahorat, ijtimoiy pedagogika fanlari bo‘yicha ma’ruzalar tayyorlash, qo‘llanmalar yaratish, pedagogik turkum fanlarini o‘qitish, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning tashkilotchilik faoliyatini nazorat qilish va boshqarishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining ommalashtirilishi. Tadqiqot natijalari muallifning SamDU «Pedagogika va psixologiya» kafedrasining ilmiy maqolalar to‘plamida

chop etilgan maqolasi orqali shuningdek Pedagogika fakulteti ilmiy maqolalar to'plamida (2011, 2012 y.y.) ommalashtirilgan.

Ilmiy-tadqiqot 2 bob, 5 paragraf, xulosalar, adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Jami 93 bet.

I BOB. KOLLEJ TALABALARIDA IJTIMOY PEDAGOGIK TASHKILOTCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY PEDAGOGIK ASOSLARI

1.1. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish – pedagogik muammo sifatida

Respublikamiz hukumati tomonidan xalq ta'limi sohasi bo'yicha o'rtaga qo'yilayotgan vazifalarni bajarish ko'p jihatdan o'qituvchiga bog'liq. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida talim-tarbiyadan ko'zda tutilayotgan maqsadga erishish, o'quvchilarning xilma-xil faoliyatini uyushtirish, ularni bilimli, odobli, e'tiqodli, mehnatkash, ishbilarmon, barkamol inson qilib o'stirish o'qituvchi zimmasiga yuklatilgan. Xalqimizning kelajagi, O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning saviyasi, tayyorgarligi, fidoiyligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi hukumati xalq talimini taraqqiy ettirishga, maktablar, o'qituvchilar va talabalarning moddiy va ma'naviy ahvolini yaxshilashga alohida e'tibor bermoqda. Shunday ekan kadrlar tayyorlashda katta e'tibor berish ularni dars jarayonlarini yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar orqali tashkillashtirish yosh kadrlarning kelajakdagi faoliyatlarida albatta o'z samarasini beradi. Ya'ni hozirgi zamonaviy interfaol usullardan foydalanish orqali ta'lim – tarbiya olgan talabalar kelajakdagi faoliyatlarida uddaburon, tashkilotchi, faol, ishbilarmon, qobiliyatli har taraflama mukammal bo'lib shakllanadi.

O'qituvchilik sharafli, lekin juda murakkab kasbdir. Yaxshi o'qituvchi bo'lish uchun pedagogik nazariyani egallashning o'zigina yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o'qitish va tarbiyalash haqida umumiy qonun-qoidalar, tamoyillar, umumlashtirilgan metodik g'oyalar bayon etiladi, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini e'tiborga olish ta'kidlanadi. Maktab hayoti, amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xil, murakkabdir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar ko'p uchrab turadi. Bu esa

o‘qituvchidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik va yuksak pedagogik mahorat hamda ijodkorlikni talab etadi.

O‘qituvchilik kasbini tanlash. Biror kasbning haqiqiy ustasi bo‘lish uchun kishida tabiiy qobiliyat, ma’lum jismoniy va ruhiy xislatlar, puxta tayyorgarlik ayrim shaxsiy sifatlar bo‘lishi kerak.

Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, bosiq va asablari joyida bo‘lishi, boshqalar bilan muomalada o‘zini tuta olishi zarur. Shuningdek bolalarni yoqtirish, ular bilan ishlashga mayli borligi, xushmuomalalik, kuzatuvchanlik keng fikrlay olish, tashkilotchilik, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanlik kabi shaxsiy sifatlar mavjudligi ham kishining pedagogik ishga yaroqliligini ko‘rsatadi.

Pedagogik faoliyat — yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob beradigan, bolalarga ta’lim-tarbiya berish ishi bilan shug‘ullanadigan va bu ishga maxsus tayyorlangan odamlarning mehnat faoliyatidir. “Tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish xuquqiga ega...” [3:5]. O‘qituvchilik faoliyati inson shaxsini shakllantirishga qaratilgandir. O‘qituvchining barkamol insonni tarbiyalash, unda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarkib toptirish vazifasi eng olijanob, yuksak va shu bilan birga eng murakkab vazifadir. Har bir bola o‘z xulq-atvoriga, xarakteriga ega. Bolalarni tarbiyalashda ularning ana shu o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, o‘rganish nihoyatda murakkab. Bunda odamlar o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning murakkabligiga mos keladigan maxsus usullardan foydalaniladi. Pedagogik faoliyatga tayyorgarlik ko‘rayotgan yoshlar uning ana shunday, xususiyatlarini bilishlari lozim. O‘qituvchilik ixti-osining bu xususiyatlari uning professogrammasida ifodalanadi.

Professogramma quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- o‘qituvchi shaxsining xususiyatlari;
- o‘qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar;

- maxsus tayyorgarlikning xajmi va mazmuni;
- ixtisosga oid uslubiy tayyorgarlikning mazmuni.

O‘qituvchi shaxsining xususiyatlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- mafkuraviy sohada - ilmiy dunyoqarash va e‘tiqod, sosial ehtiyoj va axloqiy zaruriyatlarni chuqur tushunish, ijtimoiy va fuqarolik burchini anglash, ijtimoiy faollik;

- kasbiy pedagogik sohada – bolalarni sevish va ular bilan ishlashga qiziqish, pedagogik ishni sevish; psixologo-pedagogik ziyraklik va kuzatuvchanlik pedagogik takt, pedagogik tasavvur; tashkilotchilik qobiliyati, haqqoniylik, dilkashlik, talabchanlik qat’iylik va maqsadga intilish, vazminlik o‘zini tuta olish;

- bilish sohasida – keng ilmiy saviya, ma’naviy ehtiyoj va qiziqish, yangilikni his qila bilish, pedagogik ma’lumotni oshirishga intilish.

O‘qituvchining psixologik-pedagogik tayyorgarligiga qo‘yiladigan talablar: Bilim egallash sohasida: pedagogikaning metodologik asoslarini, shaxsning rivojlanishi va shakllanish qonuniyatlarini bilish; tarbiyaning mohiyati, maqsadi, vazifalari, shakl va metodlarini tushunish, bolalar va o‘smirlar anatomo-fiziologik rivojlanishlarining asosiy qonuniyatlarini bilish; o‘quvchilar gigiyenik tarbiyasining nazariy, tabiiy-ilmiy asoslari va vositalarini bilish; bolalar rivojlanishining psixik qonuniyatlarini, har xil yoshda shaxsning individual-pedagogik xususiyatlarini bilishva hokozolardan iborat.

Ko‘nikma va malakalar hosil qilish sohasida: pedagogik vaziyatni tahlil qilish; pedagogik ta’sirlarni rejalashtirish va natijalarini mo‘ljallay olish, ijtimoiy-pedagogik hodisalarning amaldagi holatini, ularning paydo bo‘lish va rivojlanish sabablarini, shart-sharoitlari va xarakterlarini tahlil qila bilish va baholay olish; o‘quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini aniqlash; shaxs va jamoaning rivojlanishini belgilay olish; ta’lim va tarbiya jarayonida o‘quvchilarda uchrashi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va xatolarni ko‘ra bilish; aniq, pedagogik vazifalar va ularni hal qila olish; o‘quvchilarning sinfdagi va sinfdan tashqari faoliyatiga rahbarlik qilish sohasidagi ishlarni rejalashtirish; o‘quv-tarbiyaviy ishlarning

nazariy asoslangan tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini tanlay olish; rejalashtirilgan pedagogik ta'sirlarga o'quvchilarning javob harakatlarini oldindan chamalay bilish ko'nikmalari.

O'quv-tarbiya jarayonini rejalashtirish va amalga oshirish sohasida: o'quvchilarning tarbiyalanganlik va bilim darajasini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya maqsadiga muvofiq o'quv materialini tanlash, uni analiz va sintez qila olish ko'nikmasi; ilmiy materialni qayta ishlab, o'quv materialiga aylantira olish ko'nikmasi; ma'lum didaktik vazifaga muvofiq, o'quvchilar tajribasini hisobga olgan holda murakkab matnlarni va o'quv materialini o'zlashtira olish ko'nikmasi; darsni ijodiy va asosli tashkil eta olish ko'nikmasi.

Bolalar faoliyati turlarining pedagogik imkoniyatlarini aniqlash va harakatga keltirish sohasida: tarbiyaviy maqsadga muvofiq ayrim o'quvchilar va jamoa uchun vazifalar belgilash, qo'yilgan maqsad asosida ularning tushunchasini o'zgartira olish ko'nikmasi; bolalarga ta'sir o'tkazish va ular faoliyatiga pedagogik rahbarlik qilishni rejalashtirish ko'nikmasi; ta'lim va tarbiya uslublarini pedagogik maqsadga muvofiq qo'llash ko'nikmasi; o'quvchilar xulqi va faolligini boshqarish ko'nikmasi; bolaning tashqi ko'rinishi va qiliqlaridan uning ruhiy holatidagi o'zgarishlarni aniqlash, ma'lum vaziyatda bolalar xulqining xususiyatlarini anglash va izohlash ko'nikmasi; o'zini xayolan tarbiyalanuvchi o'rniga qo'ya olish ko'nikmasi; o'quvchilarni shaxs uchun va ijtimoiy qimmatli istiqbollarga qiziqtirish va jalb qilish ko'nikmasi; umumiy vazifalarni bajarish uchun o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ularning o'zaro munosabatlarini hisobga olish ko'nikmasi; tezgina qarorlar qabul qilish va pedagogik ta'sirning ancha kuchli vositalarini tez topa olish ko'nikmasi; to'g'ri talablar qo'ya bilish, pedagogik vaziyat va har bir o'quvchining xususiyatlariga qarab ularni o'zgartira olish ko'nikmasi; ayrim bolalar o'quvchilar jamoasi va kichik guruhlar, shuningdek ot-onalar va o'qituvchilar bilan pedagogik maqsadga muvofiq munosabatlar o'rnatish ko'nikmasi, har xil odamlar bilan turli sharoitda aloqa qilish, umumiy til topa bilish va to'g'ri muomala qila olish ko'nikmasi; tarbiyalanuvchilarni o'ziga qarata

olish ko'nikmasi; zarur hollarda jamoaga va ayrim o'quvchilarga nisbatan munosabatni o'zgartira olish, ularga individual yondoshish yo'llarini topa olish ko'nikmasi; ruhiy xususiyatlar va ma'naviy-ruhiy vaziyatlar, ijtimoiy-pedagogik holatlar va xatti-harakat sabablarini ko'ra olish ko'nikmasi; sinf (maktab) da ijobiy yoki salbiy ijtimoiy-pedagogik hodisalarning, jamoadagi munosabatlarning xarakterini ocha bilish ko'nikmasi.

Pedagogik jarayonni to'g'ri uyushtirish sohasida: qo'yilgan pedagogik vazifani asosli ravishda o'zgartira olish ko'nikmasi; tashqi ta'sirlarga moslashish yoki ulardan saqlanish; sharoitga qarab harakat vositalarini tanlash va qayta o'zgartira olish malakasi; o'quvchilarning jamoadagi o'zaro munosabatlariga rahbarlik qila olish, ularni to'g'ri yo'lga sola bilish, paydo bo'lib turgan o'zaro nizolarni yo'qota bilish; o'quvchilar orasida do'stlik va o'rtoqlikni rivojlantira olish ko'nikmasi; ko'rsatilgan yo'l-yo'riqlarni amalga oshirish, o'quvchilarning ishi ustidan joriy nazorat qilish, faoliyatning xarakter va yo'nalishini almashtirib turish ko'nikmasi.

Yakuniy hisob, olingan natijalarni baholash va pedagogik vaziflarni belgilash sohasida: olingan natijalarni dastlabki ma'lumotlar va topshirilgan pedagogik maqsadga taqqoslab tahlil qila bilish ko'nikmasi; o'quv-tarbiya ishlarining samarali shakl, metod va vositalarini topa bilish ko'nikmasi; ta'lim va tarbiya usullarini qo'llashning qulay sharoitlarini aniqlay bilish ko'nikmasi; pedagogik faoliyatning yutuq va kamchiliklarini tahlil qila bilish ko'nikmasi; ilg'or tajribalarni umumlashtirish, ishning samarali shakl va usullarini o'zlashtirib olish maqsadida boshqa o'qituvchilar tajribasini tahlil qila bilish ko'nikmasi; o'z tajribasi bilan pedagogik nazariya o'rtasidagi bog'lanishni aniqlash, tadqiqotchilik vazifalarini o'z oldiga qo'ya bilish ko'nikmasi; erishilgan natijalarni tahlil qilish asosida galdagi pedagogik vazifalarni belgilay olish va amalga oshira olish ko'nikmasi.

Maxsus tayyorgarlikning hajmi va mazmuniga quyidagilar kiradi: ixtisosga doir bilimlarni bilish; ilmiy bilimlarni, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va

metodlarini bilish; fanning nazariy va amaliy ahamiyatini, hozirgi darajasi, qonuniyatlari, tarixi va rivojlanishining keyingi asosiy yoʻnalishlarini bilish; maktab kursi fan asoslarining muqaddimasi ekanligini tushunish; ayrim fan sohasidagi bilimlarni chuqurlashtirish, mustaqil ilmiy-tadqiqot ishidan dastlabki malakalar hosil qilish, bilimlarni mustaqil toʻldirish uchun bibliografik maʼlumotnomalar, koʻrsatmalar, prospekt, tematik kataloglardan foydalana olish.

Ixtisosga doir metodik tayyorgarlik mazmuni: umumiy taʼlim maktablari rivojlanishining hozirgi bosqichida fanlarni oʻqitishning maqsadi va vazifalarini bilish, davlat taʼlim standarti, amaldagi maktab dasturi, darsliklar va asosiy oʻquv qoʻllanmalarini har tomonlama puxta bilish; kursning qaysi masalalari oʻquvchilarda qiyinchilik tugʻdirishini tez payqash, bu qiyinchiliklar mohiyatini tushunish, ularni bartaraf etish yoʻllarini, oʻqitish metodikasining nazariy asoslarini bilish, maʼlum sharoitlarda didaktikaning, pedagogik psixologiyaning asosiy qoidalariga tayangan holda oʻqitishning qulay muqobillarini tanlay olish; zarur hollarda ishning maʼlum usullarini boshqasi bilan almashtira bilish, didaktikaning asosiy qismlari (tushuncha, qonunlar, koʻnikma, malaka)ni, ularni shakllantirish metodikasini bilish, oʻquvchilarda fanga qiziqishni uygʻotish va rivojlantira bilish; mutaxassislik boʻyicha hamma oʻquv-tarbiyaviy ishlarni hozirgi zamon didaktikasi, psixologo-pedagogiq tizimli, texnologik yondoshuvlar va texnik talablar darajasida tashkil qila bilish; taʼlim jarayonida oʻquvchi shaxsini rivojlantirish, shuningdeq ularni ijtimoiy-foydali mehnatga va kasb tanlashga tayyorlash koʻnikmasi; oddiy koʻrgazmali qurollar tayyorlay bilish, oʻqitishning texnika vositalari bilan ishlash malakasiga ega boʻlish va ulardan foydalanish metodikasini bilish; maktabda kamida ikkita fakultativ kursni olib borishga tayyorlik; predmet boʻyicha sinfdan tashqari va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qilish va boshqalar.

Pedagogik qobiliyat va mahorat oʻqituvchilik ishida muvaffaqiyatga erishish uchun har bir muallim pedagogik mahoratni egallashi zarur. Pedagogik mahorat egasi kam kuch sarf qilib, katta natijaga erishadi, oʻz ishining natijasi bilan

mo'jizalar yaratadi, ijodkor bo'ladi. Pedagogik ishga qobiliyatli, iste'dodli kishidagina pedagogik mahorat bo'lishi mumkin.

Qobiliyat faoliyat jarayonida paydo bo'ladi va rivojlanadi. Qobiliyat malaka va uddaburonlikdan farq qiladi. Malaka va uddaburonlik mashq, o'qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa iste'dod, layoqat, zehn, ya'ni inson asab sistemasida anatomo-fiziologik xususiyat ham bo'lishi zarur. Ana shu tabiiy zaminda qobiliyat deb ataluvchi ruhiy xususiyat taraqqiy etadi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchida qobiliyatning quyidagi turlari mavjud bo'lmog'i va tarbiyalanmog'i lozim: [4:314].

1. Bilish qobiliyati — fanning tegishli sohalariga oid (matematika, fizika, biologiya, adabiyot va hokazolarga doir) qobiliyatlar. Bunday qobiliyatga ega bo'lgan o'qituvchi fanni o'quv kursi hajmidagina emas, balki ancha keng va chuqurroq biladi, o'z fani sohasidagi kashfiyotlarni hamisha kuzatib boradi, materialni ipidan ignasigacha biladi, unga nihoyatda qiziqadi, oddiy tadqiqot ishlarini ham bajara oladi.

2. Tushuntira olish qobiliyati — o'quv materialini o'quvchilarga tushunarli qilib bayon eta olish, material yoki muammoni aniq va tushunarli qilib gapirib berish, o'quvchilarni mustaqil ravishda fikrlashga o'rgatish, zarur holatda o'quv materialini o'zgartira olish, soddalashtira olish, qiyin narsani oson, murakkab narsani oddiy, noaniq narsani tushunarli qilib o'quvchilarga yetkazish kabilar.

Qobiliyatli pedagog o'quvchilarning ruhiyatini, bilim va qobiliyat darajasini hisobga oladi, ularning nimani bilishlari va hali nimani bilmasliklarini, nimani unutib qo'yganliklarini tasavvur etadi. Ba'zi o'qituvchilarga, ayniqsa, tajribasi kam o'qituvchilarga o'quv materiali oddiy, tushunarli va qandaydir alohida izohni talab etmaydigandek tuyuladi. Bunday o'qituvchilar o'quvchilarni emas, balki o'zlarini nazarda tutadilar. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi o'zini o'quvchining o'rniga qo'ya oladi, u kattalarga aniq va tushunarli bo'lgan narsaning o'quvchiga tushunilishi qiyin va mavhum bir narsa bo'lishi ham mumkinligiga asoslanib ish

tutadi. Shuning uchun u bayon etishning xarakteri va shaklini alohida o‘ylab rejalashtiradi.

Qobiliyatli o‘qituvchi dars materialini bayon etish jarayonida turli o‘quvchilarning qanday o‘zlashtirayotganliklarini qator belgilar asosida payqab oladi va zarur hollarda bayon qilish usulini o‘zgartiradi. Shuningdek qobiliyatli o‘qituvchi o‘quvchilarni materialni o‘zlashtirib olishlari uchun zamin tayyorlab, ularning dam olishdan ishga o‘tishlari, bo‘shashish, lanjlik loqaydliklariga barham berish uchun biroz vaqt ajratish zarurligini hisobga oladi. U tegishli vaziyat yuzaga kelgunga qadar darsni boshlamaydi.

3. Nutq madaniyati — nutq yordamida, shuningdeq imo-ishora vositasida o‘z fikr hamda his-tuyg‘ularini aniq va ravshan ifodalash qobiliyati. Bu o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir.

O‘qituvchining nutqi darsda hamisha o‘quvchilarga qaratilgan bo‘ladi. O‘qituvchi yangi materialni tushuntirayotgan, o‘quvchining javobini tahlil qilayotgan yoki ma’qullamayotgan bo‘lsa ham uning nutqi hamisha ta’sirchanligi, o‘zi gapirayotgan narsaga qiziqayotganligi bilan ajralib turadi. Fikrning ifodasi o‘quvchilar uchun aniq, sodda, tushunarli bo‘ladi.

O‘qituvchining bayoni o‘quvchilar fikri va diqqatini yuksak darajada faollashtirishga qaratiladi; o‘qituvchi o‘quvchilar oldiga savollar qo‘yib, ularni asta-sekin to‘g‘ri javob berishga undaydi, o‘quvchilarning diqqatini kuchaytiradi hamda fikrini faollashtiradi. (“Mana bu yerga alohida e’tibor bering”, “O‘ylab ko‘ring” kabi.) Shuningdek o‘rinli qochiriq, hazil, yengilgina istehzo nutqini juda jonlantirib yuboradi va uni o‘quvchilar tez o‘zlashtiradilar.

O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, obrazli, talaffuzi jihatidan yorqin, ifodali bo‘lib, unda stilistik grammatik fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir xildagi cho‘ziq, zeriktiradigan nutq o‘quvchilarni juda tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib qo‘yadi. Ayrim o‘qituvchilar tez gapirishga, boshqalari sekin gapirishga moyil bo‘ladilar. Biroq o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari uchun o‘rtacha, jonli nutq yaxshi natija berishini esdan chiqarmaslik lozim. Shoshqaloklik materialni

o'zlashtirishga xalaqit beradi va bolalarni tez charchatib qo'yadi. Haddan tashqari sekin nutq lanjlik va zerikishga sabab bo'ladi. Haddan tashqari keskin va baqiroq nutq o'quvchilarning asabini buzadi, tez toliqtirib qo'yadi, o'qituvchining zaif ovozi yomon eshitiladi. Nihoyatda ko'p takrorlanadigan bir xildagi imo-ishora va harakatlar kishining g'ashini keltiradi.

4. Kuzatuvchanlik qobiliyati — o'quvchining, tarbiyalanuvchining ichki dunyosiga kira olish, o'quvchi shaxsini va uning vaqtinchalik ruhiy holatlarini juda yaxshi tushuna bilish bilan bog'liq bo'lgan pedagogik kuzatuvchanlik va boshqalar. Bunday qobiliyatli o'qituvchilar kichkinagina alomatlar, uncha katta bo'lmagan tashqi belgilar asosida o'quvchilarning ruhiyatidagi ko'z ilg'amas o'zgarishlarni ham fahmlab oladi.

5. Obro' orttira olish qobiliyati — o'quvchilarning hissiyoti va irodasiga bevosita ta'sir ko'rsatish va shu asosda obro' qozona olishdir. Obro' o'qituvchining fanni yaxshi bilishi, mehribonligi asosida ham qozoniladi. Bu qobiliyat o'qituvchi shaxsiy sifatlarining butun majmuiga, chunonchi, uning irodaviy sifatlariga (dadilligi, chidamliligi, qat'iyligi, talabchanligi va hokazolarga), shuningdek o'quvchilarga ta'lim hamda tarbiya berish mas'uliyatini his etishiga, o'zining haq ekanligiga ishonishiga, bu ishonchni o'quvchilarga yetkaza olishiga ham bog'liq.

O'quvchilar qo'pollik qilmaydigan, qo'rqitmaydigan, to'g'ri talab qo'ya oladigan o'qituvchini juda hurmat qiladilar. O'qituvchining bo'shangligi, laqmaligi, prinsipsizligi va irodasizligini yoqtirmaydilar.

6. Tashkilotchilik qobiliyati — birinchidan, o'quvchilar jamoasini uyushtirishni, jipslashtirishni, muhim vazifalarni hal etishga ruhlantirishni; ikkinchidan, o'z ishini to'g'ri uyushtirishni nazarda tutadi.

O'z ishini tashkil etish deganda ishni to'g'ri rejalashtira olish va uni nazorat qila bilish ko'zda tutiladi. Tajribali o'qituvchilarda ishni vaqtga qarab to'g'ri taqsimlay olish, belgilangan muddatda ulgurish xususiyati hosil bo'ladi. Dars

davomida ortiqcha vaqt sarflash hollari ba'zan uchrab turadi. Ammo tajribali o'qituvchi zarur hollarda darsning rejasini o'zgartira oladi.

7. Oldindan ko'ra bilish qobiliyati — o'z harakatlarining oqibatini ko'ra bilishda, o'quvchining kelgusida qanday odam bo'lishini tasavvur qila olishda, tarbiyalanuvchida qanday fazilatlarni taraqqiy ettirish lozimligini oldindan aytib bera olishda ifodalanadi. Bu qobiliyat tarbiyaning qudrati va odamga bo'lgan ishonch bilan bog'liq.

8. To'g'ri muomala qila olish qobiliyati — bolalarga yaqinlasha olish o'quvchilarga to'g'ri yondoshish yo'lini topa olish, ular bilan pedagogik nuqtai nazardan juda samarali o'zaro munosabatlar o'rnatish, pedagogik nazokatning mavjudligidadir.

9. Diqqatni taqsimlay olish qobiliyati — o'qituvchida diqqatning barcha xususiyatlari — hajmi, kuchi, ko'chuvchanligi, idora qilinishi, safarbarligi kabilar taraqqiy etgan bo'lishi muhimdir.

Diqqatni ayni bir vaqtda taqsimlash qobiliyati — o'qituvchilik uchun alohida ahamiyat kasb etadi. Qobiliyatli, tajribali o'qituvchi materialni bayon qilish mazmuni va shaklini, o'z fikrini (yoki o'quvchining fikrini) diqqat bilan kuzatadi, ayni vaqtda barcha o'quvchilarni ko'rib turadi, toliqish, e'tiborsizlik tushunmaslik alomatlarini tez payqab oladi, intizomsizlik hollarini e'tibordan qochirmaydi, nihoyat, o'z xatti-harakatlarini ham kuzatib boradi. Tajribasiz o'qituvchi ko'pincha materialni bayon qilishga berilib ketib, o'quvchilarni e'tibordan chetda qoldiradi, nazorat qilmay qo'yadi, bordi-yu o'quvchilarni diqqat bilan kuzatishga harakat qilsa, fikr kalavasini yo'qotib qo'yadi.

O'qituvchi yuqorida ko'rsatilgan qobiliyatlardan tashqari bir qancha ijobiy sifatlarga – aniq maqsadni ko'zlash, qat'iylik, mehnatsevarlik, kamtarlik kabi fazilatlarga ham ega bo'lishi kerak.

Bunday xususiyatlar bo'lmasa, o'rtamiyona pedagogik darajasidan yuqoriga ko'tarila olmaydi.

1.2. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish omillari

Insoniyat tarixida o'qituvchilik kasbi eng qadimgi kasblardan biri bo'lib hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotining ibtidoiy davrida ham yashash uchun tabiatning kuchlariga qarshi kurash olib borish jarayonida sekin-asta hayot tajribasi ortira boshlangan ilk ota-bobolarimizda ham o'z malaka va tajribalarini yosh avlodga o'rgatish, bolalar, o'smirlar hamda yoshlarni o'qitish ehtiyoji paydo bo'lgan. Ibtidoiy jamoa davrida bolalar tarbiyasi keksa avlod namunasida olib borilgani tahmin qilinadi. Bolalar mehnat qurollari tayyorlash, ov qilish, suvda suzish, boshpana qurish, kiyim-kechak tikish singari kasblarga o'rgatilgan, yoshlarga ta'lim berish ishida asosan ota-onalar hamda yoshlar bilan yonma-yon mehnat qiluvchi katta yoshdagi kishilar shug'ullangan.

Urug'chilik tuzumida ham bolalar va yoshlarda, tabiatning inijliklariga qarshi kurash qobiliyatini tarbiyalash maqsadida, maxsus mashg'ulotlar va sport o'yinlari, chunonchi, chaqqonlik va chidamlilikka o'rgatuvchi, qahramonlik va sabr-matонатni shakllantiruvchi mashqlar o'tkazilgan.

Quldorlik jamiyatida, sinflar paydo bo'lgandan so'ng, mehnat aqliy va jismoniy mehnatga bo'lingach, birinchi bor yosh avlodga ta'lim-tarbiya beruvchi kishilar ajralgan.

Qadimiy Sharq davlatlarida (Suriya, Vavilon, Misr) o'qituvchilik kasbini imtiyozli yuqori toifaga mansub bo'lgan ruhoniylar o'z qo'llariga olgan edilar. Ular o'zlarini xalq orasida har qanday savollga tangri nomidan javob beruvchi karomatli folbin, deb targ'ib etar, haqiqiy bilim esa, xudo amrini bahs etish tufayli muyassar bo'lishini ta'kidlashadi.

Urug'chilik tuzumida barcha bolalar bir xil tarbiyalanardi. Sinflarga bo'lingan jamiyatda esa har xil tarbiyalanganlar. Zodagonlar, zamindorlar va yirik savdogarlar ixtiyorida eng yaxshi o'qituvchilar bo'lar, ular esa, o'z xo'jayinlari dargohlarida yashar yoki ta'lim-tarbiya ishlarini maxsus gimnaziya va sport

maktablarida olib borar edilar. Ularning asosiy vazifalari o'z xo'jayinlarining farzandlariga fan va san'at asoslarini o'rgatib, kelajakda qullar va oddiy xalq ustidan hukmronlik qiluvchi janoblar yetishtirishdan iborat edi. Buning uchun ular asosan kishilarni boshqarish, tashkil etish qobiliyatini o'z tarbiyalanuvchilariga singdirar edilar.

Qadimgi Gresiyada har xil sistemaga asoslangan tarbiya uslubi mavjudligi turlicha bo'lishini talab etardi. Spartada zamindor va hunarmandlarning bolalarini harbiy ishga istilochilik yurishlariga tayyorlanar, shu boisdan o'qituvchilar ham yosh avlodni bardam-baquvvat, jahongir va shijoatli qilib tarbiyalashga hamda qullarga nafrat ko'zi bilan qarashga da'vat etardilar. Afinada esa, savdo-sotiq ishlari katta ahamiyatga ega edi. Shuning uchun ham bu yerda pedagoglar yoshlarni gimnastika hamda harbiy ishlarni o'rgatish bilan bir qatorda geografiya, til va notiqlik san'atini sirlari bilan tanishtirardilar.

Grek o'qituvchilari (didaskallar va pedotriblar) asosan erkin kasb egalari bo'lib, ular yollanish orqali ishlar yoki o'zlarining xususiy pullik maktablariga ega edilar.

Qadimgi Rimda xalq maorifi asosan davlat vazifasiga aylana boshladi. Bu yerdagi o'qituvchilarni imperator hokimiyati tayinlar, shu sababli pedagoglar ham davlat amaldori hisoblanardi. Gresiya va Rimda ham qullarga o'z oilasi doirasida va quldorlar xo'jaligida faqat hunar o'rgatildirdi, xolos. Bularning o'qituvchilari ham og'ir hayot sharoitida yashovchi qullar edi. Qadimgi grek yozuvchisi Lukian o'zining hajviy asarlaridan birida podsholarga jazo sifatida do'zaxda o'qituvchilik qilishga majbur etishi bejiz emas. Bu davrda o'qituvchilar o'z shogirdlarini itoatkorlik, vatanparvarlik, jidamlilik, mehnatsevarlik ruhida tarbiyalar, ularni ruhan chiniqtirishga katta e'tibor berar edilar.

O'rta asrlarda, feodal tuzumi davrida, hukmronlik qiluvchi 2 ta ijtimoiy guruh – oq suyak dvoryanlar yoki risarlar va ruhoniylar guruhi mavjud edi. Ruhoniylar diniy-mistik g'oyalar orqali yoshlarni tarbiyalar edilar. Yirik feodallarning saroylari huzurida risarlar tarbiyalanardi, u yerda risarlarning o'zlari

yoshlarning asosiy murabbiylari bo'lib hisoblanar va ular yoshlarda nayzabozlik, qilichbozlik, suzish, ov qilish, shashka o'ynash, she'r mashq qilishga doir malakalar hosil qilar edilar. Hosil qilinishi lozim bo'lgan bu malakalar «Risarlarning yetti fazilati» deb yuritilardi. Diniy maktablarda o'qituvchi sifatida ruhoni va rohiblar ishlar edi.

O'rta asrning ikkinchi yarmida shaharlar jadal sur'atlar bilan o'sishiga sabab, ko'p sonli hunarmandlar va savdogarlarning yetishib chiqishi edi.

Bularning farzandlarini o'qitish maqsadida hunarmandlar va gildiya maktablari ochildi. Bu maktablarda yollanma mehnat bilan shug'ullanuvchi o'qituvchilar ishlar, ular cherkov huzuridagi maktablardan farqli o'laroq, talabalarga asosan o'qish, yozish va hisobdan ta'lim berar edi. Ammo aholining asosiy qismi hisoblangan dehqonlar hech narsaga o'qitilmasdi.

Kapitalizm davriga kelib o'qituvchilik keng tarqalgan kasb bo'lib qoldi.

Uyg'onish davrida italiyalik Vitterino da Feltre (1378-1446), fransuz Fransua Rable (1494-1553), golland Erazm Rotterdamskiy (1466-1536) singari talantli nazariyotchi pedagoglar paydo bo'ldi.

XVI asrga kelib buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy (1592-1670) pedagogik faniga asos soldi. Uning g'oyasini shveysariyalik Iogann Pestalossi (1746-1827), germaniyalik A.Disterverg (1790-1866) singari demokratik oqimdagi mashhur pedagoglar muvaffaqiyat bilan amalga oshirdilar va taraqqiy ettirdilar.

Bu ulug' zotlar ta'lim-tarbiya ishida dogmatizm va qoloqlikka hamda maktabning butxona ta'siri ostida bo'lishiga qarshi, tarbiya borasida demokratizm prinsipini rivojlantirib, ilg'or uslublardan foydalanish, o'qitish jarayonida ko'rgazmali metodni joriy qilish, o'quvchilarni aniq va haqiqiy, hayotda foydali bilim asoslari bilan qurollantirish uchun kurashdilar.

1917 yildan 1991 yilgacha bo'lgan davrda o'qituvchi sinfiy tuzum xizmatkori edi. 1991 yilga qadar, ya'ni Respublikamiz mustaqillikka erishgunga qadar o'qituvchi bir qolipda tayyorlanar, ta'lim-tarbiya «kommunizm» qurish

maqsadiga xizmat qilar, o‘qituvchilarning ma’naviy-moddiy ahvoli nochor ahvolda edi.

1991 yildan so‘ng O‘zbekiston Respublikasida milliy pedagogika yuzaga keldi va rivojlana boshladi. O‘qituvchini moddiy ma’naviy, ijtimoiy himoyalash sohasida qator qarorlar qabul qilindi. O‘qituvchi tarixda birinchi bor erkin fikrlovchi yosh avlodni tarbiyalash huquqini qo‘lga kiritdi.

Talabalarda tashkilotchilik mahoratini tarbiyalash mazkur sohadagi bilim, ko‘nikma va malakalar hamda shaxsiy pedagogik sifatlarni egallashni talab etadi. Birinchi navbatda, talabada tashkilotchilik mahoratiga doir ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy asoslarni tashkil etuvchi quyidagi manbalardan xabardor bo‘lishi lozim bo‘ladi:

1. O‘zbek halqining yozma adabiy va madaniy merosi.

Milliy g‘urur nafaqat o‘zbek halqining pedagogikasi vositasida, balki uning iqtidorli, kuchli shaxslari tomonidan yaratilgan moddiy-ma’naviy madaniyati orqali ham shakllantiriladi. Hozirgi sharoitda bu vazifani faqatgina yangi, yosh pedagoglar avlodi amalga oshirishi mumkin. Yozma adabiy va madaniy merosining taolim tarbiyasida tutgan o‘rni shunda yaqqol gavdalanadiki, O‘zbek halqi, umuman, Ovro‘paliklar no‘ktai nazaridagi “avom” halq emas, balki uning o‘ziga xos qadimiy yozuvi mavjud ekanligi, bu yozuv tarixan eskirgan bo‘lsa-da, turkiy halqlarning jahon madaniyatida tutgan o‘rnini shak-shubhasiz belgilash kabi ochiq-oydin fakt yoshlarimizga o‘z milliy madaniyati, ajdodlari erishgan yutuqlaridan faxrlanish tuyg‘usini uyg‘otadi. O‘rxun-Yenisey (Onasoy) yodgorligi nomi bilan mashhur bo‘lgan, ota-bobolarimiz qoldirgan yodgorlikning o‘ziyiq yoshlarimizni vatanparvarlik, qahramonlik, umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligida tarbiyalashga xizmat qiluvchi omildir. Shuning o‘ziyiq yoshlarimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlar natijasi o‘laroq, ona-yurt, umuman insoniyat uchun muhim va eng qadrli qadriyat hisoblanmish yosh avlodda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish lozimligi shak-shubha tug‘dirmaydi.

2. Xalq pedagogikasi. O‘zbekistonda yashovchi turli-tuman etnik qatlamlar, bevosita esa, o‘zbek xalqi tomonidan ko‘p asrlar davomida yaratilgan tarbiya tizimi. Bu tizim o‘zida ta’lim-tarbiyaga doir turli-tuman fikrlar, urf-odatlar va an’analarni mujassamlashtiradi. Bular esa aniq tarixiy shaxslar yoki umumxalq tomonidan o‘z nasliga tarixiy-madaniy meros sifatida qoldirilgan xalq pedagogikasi xalq og‘zaki ijodida o‘z aksini topgandir va u nihoyatda ko‘p materiallarni o‘zida qamrab oladi. O‘zbek xalqi boy epik folklor (dostonlar, ertaklar, masal va matallar, topishmoqlar, miflar)ga egadir. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining barcha janrlarida yuksak insoniy, axloqiy fazilatlar tarannum etiladi: bolalarni oilada tarbiyalash, insoniylik, insonparvarlik, inson xilqatini hurmat qilish, sevgi-muhabbat, insonlar haqida g‘amxo‘rlik, do‘stona munosabatlar va har sohada turli millat vakillari bilan hamkorlik qilish va h.k. Bunday fazilatlar orasida o‘zbek xalqi uchun g‘oyatda xos bo‘lgan kamtarlik, keksalarni e‘zozlash, ota-ona, qarindosh-urug‘lar oldidagi burchni yuksak darajada ado etish, o‘z tug‘ilgan yurti-vataniga sodiqlik, bolajonlik (o‘z farzandlari baxti uchun har qanday qiyinchiliklarni boshdan kechirish, lekin bunda halollikka rioya qilish), jasurlik, do‘stlarga sadoqatlikkabilar alohida ajralib turadi. Mazkur axloqiy fazilatlar, bizning nazarimizda, o‘zbek halqining, millatining milliy o‘z-o‘zini anglash, e‘tiqodini tashkil etadi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki yuqorida sanab o‘tilgan barcha axloqiy fazilatlar beshikdan boshlab, inson kuzatib quyiladigan qaro yer qarigacha davom etadi va uni hech kim o‘zgartirishga qodir emas.

Milliy muhit quyidagi tarkibiy qismlardan iboratdir: oila, mikro muhit (mahalla, ko‘cha, qishloq, tuman va h.k.), tarbiyaviy muhit. Bular siz milliy tarbiya haqida so‘z ham bo‘lishi mumkin emas. Demak, faqatgina ana shunday shart-sharoitlarga ega bo‘lgan talabalargina yosh avlodni milliy ruhda tariyalashga qodirdir, buning asosiy metodlari esa: ishontirish, faoliyatda mashq qildirish, rag‘batlantirish va jazolashdir.

“O‘zbek pedagogikasi antologiyasi”da qayd etilganidek, o‘zbek halq pedagogikasi ko‘p qirrali tushunchadir va u o‘zbek halqi paydo bo‘lgan paytdan boshlab mavjuddir [5:57].

3. Musulmon Sharqi, Xitoy, Hindiston, Yaponiya halqlarining madaniy va adabiy merosi yosh avlodni milliy-axloqiy, umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalashda bitmas-tuganmas manba hisoblanadi. Xuddi shu Sharq sivilizasiyasi ta’lim tarbiyadagi ma’naviy-axloqiy, insonparvarlik yo‘nalishini ilk bor yoqlab chiqqanligi jahon faniga ma’lum. Zardushtiylarning muqaddas kitobi – “Avesto” Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron, Yaqin va O‘rta Sharq halqlarining qadimiy tarixi, madaniyati, turmush tarzi va urf odatlarini qomusiy holda o‘zida aks ettirgan manba bo‘lib, buning ta’siri hozirgi kunimizda ham islom dini bilan uyg‘un tarzda o‘z ildiziga egadir. “Avesto” – qadimiy ota-bobolarimiz amal qilgan qomusiy asardir. Unda o‘tmishga doir siyosiy-falsafiy, axloqiy, xalq og‘zaki ijodi, jug‘rofiy, biologik, psixologo-pedagogik, astronomik va tibbiyotga doir sinalgan bilimlar o‘z o‘rnini topgandir. “Avesto”ning ta’lim tarbiyaviy imkoniyatlaridan foydalanish tarbiyachilarga uch ijobiy fazilatni yoshlarda shakllantirish imkonini beradi: 1). Yaxshi niyat; 2). Yaxshi so‘z (muomala madaniyati); 3). Yaxshilik qilish [5:32].

Zardushtiylik inson zotini birlashuvga chaqirar ekan, yaqin qarindoshlar orasidagi nikohni man etadi, oilaviy burchni mustahkamlaydi. Islomgacha bo‘lgan din sifatida zardushtiylik ham tabiatni e’zozlashni, uni qo‘riqlashni va yakka xudolikni targ‘ib qiladi. Shuning uchun ham zardushtiylikning sobiq ixlosmandlari, bizning nazarimizda, islomni unchalik og‘rinmasdan, tabiiy ravishda qabul qilishgan.

Muqaddas “Qur’on” musulmon halqlarning muqaddas yo‘l-yo‘rig‘i bayon qilingan manba bo‘lib, jahondagi milliarddan ortiq musulmonlarni axloqiy, ma’naviy jihatdan tarbiyalovchi tengsiz manba hisoblanadi. O‘rta Osiyoda Islom dini faqatgina ko‘pchilik aholi mansub bo‘lgan din sifatidagina emas, balki musulmon halqlarining psixologiyasi va hayotining axloqiy asosini ham o‘zida aks ettiradi. Islom dini O‘rta Osiyo yerli millatlari shakllanishi bilan bir vaqtda bu

yerlarga kirib kelganligi ham bu yerda yashovchi millatlarning urf-odat, axloqiy muhit va boshqa-boshqa jihatlaridagi mushtaraklikda o‘z aksini topdi va singib ketdi, ularning milliy madaniyati shakllanishida asosiy mezonlardan biri bo‘lib qoldi.

Muqaddas kitobning asosiy ahloqiy prinsiplari quyidagilarda ifodalanadi:

- 1) Yagona Ollohga talpinish (shaxsga sig‘inish kabi illatlarga qarshi ahloqiy fazilat);
- 2) Barcha insonlarning uning oldida teng ekanligi (barcha millat, elat, halqlar o‘rtasidagi milliy muomala madaniyatini ro‘yobga chiqarish uchun zamin bo‘la oladigan tamoyil);
- 3) Odillik (tashkilotchilik mahoratining asosiy belgilaridan biri);
- 4) Tinchliksevarlik (insonning o‘z farzandlari, do‘stlari, halqi, millati ravnaqi va avlodning davom etishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoit);
- 5) Rahmdillik, shafqatlilik (botiniy madaniyatning in‘ikosi);
- 6) Axloqiy poklik (yuqorida zikr etilgan barcha fazilatlarining eng yuqori cho‘qqisi).

Shuni alohida ta’kidlash joizki, “Qur’on”da olg‘a surilgan ijobiy tarbiyaviy tamoyillar O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni hamda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da yangi bir sharoitda, halqimiz urf-odatlari hamda umuminsoniy burchni anglagan holda yanada mukammallashadi. Jumladan, dasturda shunday ta’kidlanadi: “Ta’limning milliy yo‘naltirilganligi – ta’limning milliy tarixi, halq an’analri va urf-odatlari bilan uzviy uyg‘unligi. O‘zbekiston halqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta’limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa halqlarning tarixi va madaniyatini xurmatlash”dan iboratdir. Shunday ekan “Qur’on”dagi oyatlardanbirida ta’kidlanganidek, “... odamlar ilgari bitta diniy uyushmaga birlashgan edilar, keyinchalik esa ular orasida kelishmovchilik yuz berdi: agar ollohning o‘gitlariga quloq solganlarida edi, bu yuz bermas edi,” kabi fikrlar insonni har qanday holatda ham adolat, do‘stlik mustaqillik, hamjihatlik, g‘amxo‘rlik sari yetaklaydi.

Muqaddas “Qur’on” oyatlaridagi haqiqat “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”da halqimizning bugungi kungi ehtiyoji, taraqqiyot darajasi va mo’ljallagan maqsadini o’zida mujassamlashtirgandir.

Prezidentimiz I.A.Karimov Toshkentda bo’lib o’tgan 16 fevral voqyealari munosabati bilan so’zlagan nutqlarida: “Bizning dinimiz – “Qur’on”, bizning e’tiqodimiz - xadislardir” – deb bejiz aytmagan edi. Shuning uchun ham umuminsoniy va umummilliy qadriyatlar qomusi sifatidagi “Qur’on” Sharif hamda Muhammad Mustafo hadislariga doir bilimlar yoshlarimizning komil inson bo’lib shakllanishlari uchun muhim manba hisoblanadi.

Quyida musulmon ahlining Payg’ambarimiz yo’lini rivojlantirgan rahnamo – Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriyning bizning ma’naviy dunyomizni, boyitishga yordam beruvchi, insonlarda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish omili sifatida xizmat qiluvchi xadislarni keltiramiz:

Munofiqlarning alomatlari (Munofiq hiech kim bilan do’stlasha olmaydi). “Payg’ambarimiz Muhammad Alayhi Vassalam munofiqlarning, ya’ni o’z so’zi, e’tiqodiga zid borib, hayotda qiladigan ma’naviy, siyosiy, tadbirkorlik faoliyatida kishi yo’l qo’yadigan uch alomatni keltirgan ekan: so’zlasa yolg’on so’zlar, va’da qilsa bajarmas, omonatga xiyonat qilur”. Bu hadis hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitiga aynan mos keladi. O’z so’zi, shartnomasida belgilangan talablarga ega bo’lmagan kishilarning shaxsiyati bu o’rinda o’z o’rnini topgan. Haqiqatdan ham yolg’onchi o’z manfaatini ko’zlab yolg’on gapiradi, va’dasida turmaydi va qarzingni o’zlashtirmoq uchun ollohni tilga olib qasam ichadi. Demak, munofiqlik nafaqat millatni, balki millatlararo munosabatlarni ham izdan chiqaradi.

Ilm o’rgatmoq, ilm o’rganishning fazilatlarini. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy “Al-Jome’ al-sahih”ida yozadi: Rasullilloh Sallolohu Alayhi Vassalam aytganlar: “Olloh taolo menga yuborgan hidoyat olloh taolo bandalariga ko’rsatgan to’g’ri yo’l, yo’llanma singari ilm ham ko’p yoqqan yomg’irga o’xshaydir. Ba’zi yer sof unumdor bo’lib yomg’irni o’ziga singdiradi va har xil o’simliklar va ko’katlarni o’stiradi va ba’zi yer qurg’oq, qattiq bo’lib, suvni o’zida

to'playdir. Odamlar suvdan ichadilar, hayvonlarini va ekinlarini sug'oradilar, ba'zi yer esa tekis bo'lib, suvni o'zida tutib qolmaydi, ko'katni ham ko'kartirmaydi... ". Payg'ambarimiz ana shu tabiiy hodisani ijtimoiy hayotga bog'lab, quyidagi xulosani bayon etadilar: "Bir kishi olloh ilmini teran tushunadir, undan manfaatlandi va olloh yuborgan haqiqatni o'zi o'rganib, o'zgalarga ham o'rgatdi. Ikkinchisi ilm o'rganib, odamlarga o'rgatadir, ammo o'zi unga amal qilmaydi. Uchinchi bir kishi mutakkabirlik qilib, o'zi ham o'rganmaydi, o'zgalarga ham o'rgatmaydi. Bulardan birinchisi mo'min, ikkinchisi fosiq, uchunchisi kofirdir" [5:86]. Buning birinchisi, bizning nazarimizda haqiqiy o'qituvchi-tarbiyachi, ota-ona; ikkinchisi o'z ilmini, qalbini boshqalarga ravo ko'rmaydigan xudbin, uchinchisi esa lavozim uchun ilm dargohiga kirib olib, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan, iymon-e'tiqodini moddiy boylikka almashtirgan, ziyoli niqobidagi kishilar ko'z oldimizga keladi va mazkur hadisning qanday haqiqiy quvvatga ega ekanligi kishini hayratga soladi.

Yuqorida keltirilgan hadislar yoki avlodni o'z o'tmishiga, olayotgan tarbiya tizimiga, shaxsiyatining shakllanishiga teran ko'z bilan qarab, o'z-o'zini tanqidiy ruhda tarbiyalashga, o'zi bilan birga yer kurrasida jonajon Respublikamizda yashayotgan boshqa millat vakillariga nisbatan hurmat tuyg'ularini, qolaversa, tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga imkon tug'diruvchi manbadir.

Buyuk qomusiy olim, pedagog Abu Nasr al-Farobiy insonlar orasidagi shaxsiy do'stona munosabatlarni ta'riflab: "Do'stlik – ikki kishining munosabatidagi mo'tadil aloqadir". Uning ortig'i yoki kamligi do'stlikka putr yetkazishini ta'kidlagan edi. Uningcha do'stona munosabatning ortiqligi – xushomadgo'ylikka, ozi esa kekkayishga olib keladi. Buning ustiga-ustak agar u o'z do'stini xafa qiladigan darajada munosabatda bo'lsa, dushmanlikni keltirib chiqaradi. Buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy Forobiyning bu fikrini qo'llab-quvvatlagan holda, "Minerologiya" nomli asarida ijobiy hislatlarga ega bo'lgan do'sti bor inson baxtlidir, "Ana shundayin, haqiqiy do'st kishida faqat bitta bo'ladi, bundan ortiq bo'lishi mumkin emas, boshqa do'stlarning ko'p yoki oz bo'lishi

odamning molu davlati, kishilarni o‘ziga jalb eta olish qobiliyatiga bog‘liq”, - deb yozadi [7:35]. Yaxshilik uning fikricha, barcha insonlarga yaxshilik qilish, iloji bo‘lganda esa amalda ko‘mak berishda ifodalanadi. Ulug‘ olim va pedagog Abu Ali Ibn Sino fikricha: «Do‘stlik – insonning shunday bir holatidirki, bunda boshqa birovga yaxshilik istaladi, shunda inson yaxshilikni o‘zi uchun istamaydi, balki uni boshqa birov uchungina istaydi xolos. Shu holatda kishida boshqaga nisbatan yaxshilik qilishga chaqiruvchi xususiyat paydo bo‘ladi. Do‘st bu yaxshi ko‘ruvchidir. Do‘st – o‘z do‘stining xursandligida ham, baxtsizlik kezlarida ham qayg‘u va shodligiga sherik bo‘ladi».

M.Qoshg‘ariy o‘zining «Devonu lug‘oti turk» asarida yoshlarni insonga bo‘lgan muhabbat, vatanga sadoqat, ilmga chanqoqlik, mehmondo‘stlik, xushmuomalalik, mardlik, insonlar o‘rtasida do‘stona munosabat, salbiy axloqiy fazilatga chaqiradi [5: 185].

Yusuf Xos Xojib ta’lim-tarbiya, ma’naviy kamolot yo‘l-yo‘riqlari, usullari, chora-tadbirlari haqidagi darsligi «Qutadg‘u bilig»da yoshlarni o‘zaro mehr-muhabbat, hurmat, ehtiyotkorlik, tadbirkorlik, adolat, sabr-qanoat, ilmga intilish, muomala madaniyatini tinmay egallashga, buning uchun keksalar tajribasiga tayanishga da’vat etadi [5:146].

XII asr mutafakkiri Ahmad Yassaviy tasavvufiy yo‘nalishida insonlarni bu dunyoda pok, halol, beozor, yetim-g‘ariblarga mehr shafqatli bo‘lib yashashga undaydi.

Mahmud ibn Umar ibn Muhammad ibn Ahmad az-Zamaxshariy yosh avlodni to‘g‘ri so‘zlik, ilmga chanqoqlik, sabr-qanoatlik, ziyraklik, do‘stga hurmat, muomala madaniyati kabi fazilatlarni egallashga, pastkashlik, takabburlik, vaysaqilik, soxta olimlik kabi salbiy xislatlardan nafratlanishga chaqiradi.

Shayx Najmiddin Kubro «Fi-Al-Adab» («Odob qoidalari») nomli asarida «Eng go‘zal bezak tavozelik, eng xunuk narsa baxillik; Husni hulq (chiroyli hulq-muomala madaniyati)dan ko‘ra yaxshilik qo‘shadiganroq, hasaddan ko‘ra

yomonlik qo‘shadiganroq narsa yo‘qdir», deb yozar ekan, muomala madaniyatini egallashga undaydi.

Burhoniddin Zarnudjiy “O‘quvchiga ta’lim yo‘lida qo‘llanma” asarida yoshlarga “O‘rtoq tanlashga kelsak, shunday o‘rtoq tanlash kerakki, g‘ayratli, sofdil, pok fe’l-atvor egasi bo‘lsin, lekin yalqov, ishyoqmas, ezma, jinoyatchi va o‘g‘rillardan o‘zingni yiroq tut” [5] deb ta’lim beradi. Uning bu o‘gitlari shubhasiz tashkilotchilik mahoratini shakllantiruvchi asosiy tushunchalarni o‘zida ifodalaydi.

Ahmad Yugnakiy “Hibat-ul-haqoyiq” nomli axloqiy-didaktik asarida saxiylik, oliyjanoblik, nutq madaniyati, odob, muomala madaniyatini egallashga chaqiradi.

Pahlavon Mahmud o‘z she’rlarida kelajak avlodni mardlik, vatanparvarlik, javonmardlik fazilatlarini egallashga chaqirish bilan birga, muomala madaniyati, odob-axloq fazilatlaridan bahramand bo‘lishga, do‘stlarga sadoqat ko‘rsatishga undaydi. Jumladan u o‘zining ruboiylarida shunday o‘git beradi:

Gurkiragan olov-dilim quyoshi,
To‘lqin urgan daryo ko‘zlarim yoshi.
Ko‘zagarlar yasayotgan har ko‘za –
Chin do‘stlarning xoki-qo‘li yo boshi.

Yoki:

Oh, tortgan chog‘ingda yo‘lga ko‘z tutgil,
Yo‘lda quduq bordir, ehtiyoting qil.
Do‘st uyida mahram bo‘lgan vaqtingda,
Qo‘lingni, ko‘zingni, dilni tiya bil [5:215].

XIV asrda yashab o‘tgan buyuk mutasavvuf mutafakkir Bahovuddin Naqshbandiy “Agar do‘st aybiga boqsak, do‘stsiz qolamiz, hech kim dunyoda be ayb emas. Bu yo‘lning yukini ko‘tarishga haqiqiy do‘stlar kerak..., suv ariqqa do‘stlar madadi bilan keladi, avval o‘rtoq topish, so‘ng yo‘lga chiqish kerak”, [5] deb ta’lim berar ekan, jahondagi eng ezgu fazilat do‘stlikda ifodalanishini uqtiradi.

Bahovuddin Naqshbandiy o‘ziga pir deb hisoblagan Amir Temur amal qilgan 11 fazilat tarix fanlari doktori, professor Ashraf Ahmedov tomonidan tasnif etilgan bo‘lib, mazkur sifatlarning barchasi tashkilotchilik mahoratining asosiy tushunchalariga daxldorligi bilan ham muhimdir:

1-sifat: beg‘arazlik, odillik, hammani bir ko‘zda ko‘rishlik.

2-sifat: imon - e‘tiqod, ulug‘ shaxslarga hurmat.

3-sifat: saxovatlilik.

4-sifat: rahm-shafqat, muruvvat.

5-sifat: e‘tiqodni ko‘ndalang va dunyoviy ishlardan ustun qo‘yish.

6-sifat: haqiqatgo‘ylik, haqni yolg‘ondan ajrata bilish.

7-sifat: va‘daga vafodorlik.

8-sifat: xasad qilmaslik.

9-sifat: nopok ishlardan o‘zini tiya bilish, payg‘ambar va uning sahobalarini o‘ziga do‘st deb bilish.

10-sifat: insofilik, inson bir onadan tug‘ilganligiga inson.

11-sifat: Saidlarga ehtirom ko‘rsatish. Shuning uchun Temurga nisbatan halqning mehri baland va undan minnatdor bo‘lishi [5: 229].

Amir Temurdagi mazkur sifatlarning shakllanishida shubhasiz o‘tmish mutafakkirlari, yuqorida nomlari tilgan olingan olimlarning pedagogik qarashlari katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Masalan, uning mazkur fikrlari Al-Forobiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, B. Naqshbandiylarning do‘stlik haqidagi fikrlari bilan hamohangdir: “... o‘z tajribamdan bildimki, sodiq va vafodor do‘st ulkim, o‘z do‘stidan ranjimaydi, do‘stining dushmanini o‘z dushmani deb biladi. Agar kerak bo‘lsa, do‘sti uchun jonini ham ayamaydi. Shundayki, amirlarimdan qay birlari menga jon-dili bilan hamrohlik qilgan bo‘lsalar, men ham ulardan hech narsani ayamadim. Yana o‘z tajribamdan ko‘rdimki, aqlli dushman, johilu nodon do‘stdan yaxshiroq ekan.., chin do‘st ulduki, do‘stidan hech qachon ranjimaydi, agar ranjisa ham, uzrini qabul qiladi”[8:34].

XV asrda yashab ijod etgan yana bir o‘zbek mutafakkiri va pedagogi Jaloliddin Davoniy har bir kishi do‘stga muhtoj bo‘lishini obyektiv sabablar bilan isbotlaydi: «kishining boshqa odamlar yordamiga muhtoj bo‘lishi quyidagilar bilan izohlanadi: agar har bir odam o‘zi uchun ovqat, kiytm-kechak, uy-joy, ish quroli va boshqa kerakli jihozlarga ega bo‘lishni istasa u har bir yumushni ip-ignasigacha o‘rganishga to‘g‘ri kelardi, lekin odamlar birlashgan taqdirdagina ular bu sohada bir-birlariga yordam bera oladilar, bunday o‘zaro yordam tufayli esa hayot tartibli va adolatli ravishda kechadi, insonlarning hayot ehtiyojlari qondiriladi va inson zoti saqlanib qoladi». Shunday qilib, J.Davoniy XV asrdayoq o‘zaro yordam, tinch-totuv yashash, insonlar o‘rtasidagi har tomonlama hamkorlik g‘oyasini olg‘a suradi. Bu g‘oya ham, shubhasiz, tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ulug‘ o‘zbek shoiri, adabiy tilining asoschisi shoir va mutafakkir Alisher Navoiyning halqlar do‘stligi, inson va vatanga bo‘lgan muhabbat, muomala madaniyatiga doir qarashlari ayniqsa diqqatga sazovordir. Shuning to‘chun ham uning «Xamsa»sidagi qahramonlari turli millatga mansub: Farhod-xitoylik, Shirin-Armaniston malikasi, Shopur-fors rassomi, Layli va Qays (Majnun) – arabistonlik, suqrot va Suxayl – grek olimlari, Ayniqsa, Navoiyning har tomonlama axloqiy va jismoniy rivojlangan inson halqidagi orzusi, pedagogik sistemasining mohiyati Farhod obrazida mujassamlashtirilib berilgan: uni o‘n yoshidayoq barcha ilmlarni egallagan, doim boshqalar g‘amini tortuvchi donishmand, kamtar, sofdil, to‘g‘ri so‘z inson sifatida tasvirlaydi.

Insonlar orasidagi samimiy do‘stlikni Navoiy eng muhim insoniy fazilatlardan biri deb hisoblaydi. A.Navoiy o‘z vatanini g‘oyatda sevgan, Xuroson va uning poytaxti Hirotga o‘zining «Hayrat-ul-abror» dostonida butun bir maxsus bob ajratganligi bejiz emas (o‘n ikkinchi hayrat.) Taniqli adabiyotshunos professor A.Qayumov to‘g‘ri qayd etganidek, Navoiy insonparvarligi uning falsafiy-didaktik dostoni «Hayrat-ul-abror»da o‘z ifodasini topgan ilk uch «hayrat»larda Navoiy koinot, yer va inson go‘zalligini madh etadi. Uningcha bularning har biri teng

huquqli. Koinot, yer va insonda oliy yaratuvchining buyukligi, qudrati inikos etadi. Shuning uchun ham Navoiy Ollahga bo'ladigan munosabat insonga bo'ladigan muomala ham bir xil bo'lishini orzu va talab qiladi.

Shoir, faylasuf, pedagogning mazkur dostoni inson uchun xos bo'lgan barcha ijobiy, haqiqiy fazilatlarni mujassamlashtirgan: mehnatni ulug'lash, beg'arazlik, bir-birini sevisish va hurmat qilish, ilm olishga intilish, ota-onani hurmatlash, oliyjanob tamoyillarga sodiqlik va h.k. Mazkur asarda Navoiy tomonidan ishlab chiqilgan odob normalari inson shaxsini har tomonlama takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, unda asosiy o'rinni egallovchi insonparvarlik, umuminsoniy axloqiy sifatlar Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish uchun manba bo'lib xizmat qila oladi.

Shunday qilib, Alisher Navoiy ijodi va faoliyati talabalarni tashkilotchilik mahoratini tarbiyalashga xizmat qiluvchi, milliy ongni shakllantiruvchi, kasbiy tayyorgarligiga ta'sir etuvchi qudratli omillardan biridir.253bet[5].

Alisher Navoiyning izdoshlari Bobur, Mirzo Bedil, Munis Xorazmiy, M.Ogahiy, Nodira, Rojiy, Feruz, Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Komil Xorazmiy, A.Donish, S.Siddiqiy, Anbar Otin, Avaz O'tar, Berdaq, M.Behbudiy, Cho'lpon, Fitrat va boshqalar uning yaxshilik, adolat, ilmga intilish, insonparvarlik, do'stlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, xushmuomalalik kabi g'oyalarini yangi, o'ziga xos va takrorlanmas tarixiy sharoitlarda rivojlantirishdi. Va shubhasiz, bu mutafakkirlarning axloq-odobga doir pedagogik qarashlari ham milliy tadqiqotimizning muhim metodologik asoslaridan biri hisoblanadi.

Keng miqyosda ilmiy-pedagogik adabiyotlarni o'rganish natijasida quyidagilarni aniqlashga erishdik.

Tarixiy nuqtai nazardan qaraganda yosh avlodda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish muammosi juda qadimiy va chuqur ildizga ega ekanligi oydinlashadi. Tashkilotchilik mahorati insonparvarlik va odamsevarlik fazilatlarining asosi va tarkibiy qismi ekanligi deyarli barcha o'tmishda o'tgan va zamondosh mutafakkir olimlar tomonidan u yoki bu darajada tasdiqlangan.

Tashkilotchilik mahoratini shakllantirish muammosi faqatgina pedagoglar emas, balki faylasuf, sosiolog, ruhshunoslar tomonidan umumiy rejadagina tadqiq etilgan xolos. Z.T.Gasanov, A.M.Magamedov, A.V.Aytaliyev, A.Xalim, M.Xayrullayev muammoning ayrim xususiy jihatlari K.Qurbonov, O.M.Gusenov, R.B.Abdusattorov, K.Nerunxanov, K.A.Minurov, R.G‘.Karimov, A.Do‘nanboyev, R.G.Abdulatifov, G.Shermatova, B.M.Markazovning maqolalarida o‘z aksini topgan.

Rus pedagoglari N.A.Berdyayev, N.I.Boldirev, N.Goncharov va boshqa sobiq ittifoq davrida ijod etgan pedagoglar masalaga tor-sinfy pozisiyada turib yondashganlarini ham tan olish lozim.

Muammoning tadqiq etilishida F.Gonobolin, I.S.Obidov, K.Kosnazarov, S.N.Nurmatov, F.P.Repa, A.E.Izmaylov, N.M.Talanchuk, F.A.Ildarxanova, K.M.Minurovlarning tadqiqotlaridan tanqidiy nuqtai nazaridan foydalanish foydadan xoli emas.

Shuni ta’kidlash joizki, ilmiy-tadqiqot, unda muammoning qo‘yilishi, ayniqsa, oliy va o‘rtma maxsus ta’lim tizimini “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonun, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”, eng muhimi Prezidentimiz I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch”, “Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori”, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” va boshqa bir qator asar va nuqtalari talablaridan kelib chiqqan holda isloh qilish, amalda oshirilayotgan bir vaziyatda hal qilinishi lozimligi turli-tuman sohadagi fanlar (falsafa, psixologiya, sosiologiya, etnografiya, etnososiologiya, san’atshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, iqtisod nazariyasi, tarix, til va adabiyot, iqtisodiy geografiya) ilmiy tadqiqotlari natijalarini tanlangan mavzu yuzasidan tahlil etishni taqozo etadi. Negaki, tashkilotchilik mahorati faqatgina shaxsning axloqiy, siyosiy va ijtimoiy-dunyoqarashga doir sohalar bilan uzviy bog‘liqdir.

Ilmiy tadqiqotni bajarishda Qadimgi dunyo mutafakkirlari va madaniy arboblari (Demokrit, Platon, Aristotel) hamda o‘tmish (Kvintilian,

Ya.A.Komenskiy, I.G.Pestalossi, I.Gerbart, A.Disterverg) ma'rifatparvar pedagoglarning qarashlari katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Rus (N.A.Berdyayev, V.N.Razanov, G.Volkov) va zamondosh (R.Abdullatipov, S.Davlatov, A.Agayev, M.Xayrullayev, R.Rzaliyeva, K.Xonnazarov, S.Shermuhammedov va boshqalar) pedagog, filosof va olimlar tomonidan baynalmilal, vatanparvarlik, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, milliy urf-odat va an'analar, muomala madaniyatining mohiyati tadqiq etilgan, biroq shuni ta'kidlash lozimki, bu tadqiqotlarning ko'ngilligi sinfiylik pozitsiyasida turib bajarilgan.

Yoshlarni vatanparvarlik va baynalmilal tarbiyasi bilan shug'ullangan olimlar (A.M.Axmedov, A.A.Kelganov, A.Toshmatov, M.Bobojonova, Z.S.Sariyeva, Yu.Axrorov va b.) xalq pedagogikasi (Z.Mirtursunov, K.Hoshimov, M.Murodov) odob madaniyati (A.S.Agronyan) talabalarni axloqiy shakllantirish (M.A.Ochilov, K.Taniqulova va b.) pedagogik muloqotni insonparvarlashtirish (V.Bogoslovskiy, A.A.Bodalev, B.F.Lomov, M.G.Davletshin) talabalarda muomala madaniyatini shakllantirishning falsafiy jihatlarini (B.Normurodov, N.Bo'riyev) masalalari yuzasidan bajarilgan ilmiy-tadqiqot natijalari hisobga olindi. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish muammosini tahlil etishda hamda ularni mazkur faoliyatni olib borishga tayyorlashda V.A.Slastenin, M.A.Ochilov, N.Shodiyev, K.Z.Zaripov, Ye.E.Smirnov, A.K.Munavvarov, O.Musurmonova, U.Mahkamov, M.Qurbonov, G.Emix va boshqalar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijalariga tanildi.

Pedagogik adabiyotlar va ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, «Tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish» tushunchasini tavsiflashda yagona bir fikr mavjud emas. Mazkur tushuncha turlicha izohlanadi: Masalan, muayyan millat vakillari o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro munosabatlardan iborat bo'lib, bunday munosabatga kirishuvchi kishi muayyan milliy tuyg'u, ong, til, madaniyatni o'zida aks ettiradi, bunda ijtimoiylik milliylikka nisbatan belgilovchi o'rinni egallaydi.

Bizningcha, yuqoridagi izohda mazkur tushunchaning ayrim tomonlarigina aks etgan xolos. Bizning nazarimizda, tashkilotchilik mahorati tushunchasi muayyan millat vakili shaxsiyatida shakllangan milliy hamda umumbashariy qadriyatlar asosida yuzaga keluvchi insoniy fazilatlar majmuidan iborat bo‘lib, ijtimoiy buyurtmani ijro etishga qaratilgan irodaviy harakatlar majmui sifatida izohlanadi. Shu jumladan, tashkilotchilik mahoratining nazariy va uslubiy jihatlari faylasuf, jamiyatshunos, sosiolog, pedagog, psixolog, olimlar tomonidan himoya qilingan disertasion tadqiqotlarda o‘z ifodasini topdi (M.Saidov, I.A.Popov, T.Faradov, S.V.Kamblyachene, N.A.Bo‘riyev, G.F.Gorayev, va b.).

Biroq mazkur olimlarning tadqiqotlarida Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish muammosini nazariy va amaliy ravishda tizimli ishlab chiqish maqsad qilib quyilmagan, uning ayrim jihatlarigina yoritilgan xolos. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish uning milliy mafkuraviy, vatanparvarlik, baynalmilallik, milliy ma’naviy – umumaxloqiy va umummadaniy tayyorgarligi bilan uzviy bog‘liqdir. Bu aloqadorlik shunda yaqqol ko‘rinadiki, tashkilotchilik mahorati tarbiyasini yuqorida sinab o‘tilgan shaxsiy fazilat va qadriyatlarni shakllantirish jarayonidagina amalga oshirish mumkin.

II BOB. KOLLEJ TALABALARIDA IJTIMOIIY PEDAGOGIK TASHKILOTCHILIK MAHORATINI SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

2.1. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini auditoriya mashg'ulotlari jarayonida shakllantirishda interfaol usullardan foydalanish

Bugungi kunda ta'lim jarayonida interfaol usullar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axbarot texnologiyalarni o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan kunga kuchayib bormoqda. Bunday bo'lishining sabablaridan biri shu vaqtgacha ananaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib yahlil qilishlariga, hatto xulosolarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida o'quvchi asosiy figuraga aylanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi hamda talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalgam oshirishda asosan interaktiv usullardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv usullar – bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchi dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- o'quvchini o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlari so'nmasligini ta'minlash;
- o'quvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirish;
- pedagog va o'quvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkil etish.

O'qituvchi va o'quvchining maqsaddan natijaga erishishida qanday texnologiyani tanlashlari ular ixtiyorida, chunki har ikkala tomonning maqsadi aniq natijaga erishishga qaratilgan, bunda o'quvchi talabalarning bilim saviyasi, guruh xarakteri, sharoitga qarab ishlatiladigan texnologiya tanlanadi, masalan natijaga erishish uchun, balki kompyuter bilan ishlash lozimdir, balki film, tarqatma material, chizma va plakatlari, turli adabiyotlar, axbarot texnologiyasi kerak bo'lar, bular o'qituvchi va o'quvchiga bog'liq.

Shu bilan birga o'qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o'qituvchi o'quv predmetining o'ziga xos tomonini, joy va sharoitni, ta'limning texnik vositalarini, eng asosiysi, o'quvchining imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatni tashkil eta olishini hisobga olishi kerak. Shundagina kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda o'quvchini ta'limning markaziga olib chiqish kerak. Oqituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko'ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo'lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o'qituvchiga u tomonidan bo'lajak darsni texnologik xaritasini tuzib olish katta ahamiyatga egadir, chunki darsning texnologik xaritasi har bir mavzu, har bir ars uchun o'qitilayotgan predmet fanning xususiyatidan, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi. Bunday texnologik xaritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o'qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogic va axarot texnologiyalaridan xabardor bo'lishi, shuningdek juda ko'p usullarni bilishi kerak bo'ladi. Har bir darsni rang barang, qiziqarli bo'lishi avvaldan puxta o'ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik xaritasiga bog'liq.

Shaxsga yo'naltirilgan interfaol usullardan quyidagilarni misol qilib keltirishimiz mumkin: "Masalan:

«Fikriy hujum» («Mozgovaya ataka») metodi - mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzaidan rang-barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish yechish jarayoning dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

«Yalpi fikriy hujum» metodi - ushbu metod J.Donald Filips tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uni bir necha o'n (20-60) nafar o'quvchilardan iborat sinflarda qo'llash mumkin.

Metod o'quvchilar tomonidan yangi g'oyalarning o'rtaga tashlanishi uchun sharoit yaratib berishga xizmat qiladi. Har bir 5 yoki 6 nafar o'quvchilarni o'z ichiga olgan guruhlariga 15 daqiqa ichida ijobiy hal etilishi lozim bo'lgan turli xil topshiriq yoki ijodiy vazifalar beriladi. Topshiriq va ijodiy vazifalar belgilangan vaqt ichida ijobiy hal etilgach, bu haqida guruh a'zolaridan biri axborot beradi.

Guruh tomonidan berilgan axborot (topshiriq yoki ijodiy vazifaning yechimi) o'qituvchi va boshqa guruhlar a'zolari tomonidan muhokama qilinadi va unga baho beriladi. Mashg'ulot yakunida o'qituvchi berilgan topshiriq yoki ijodiy vazifalarning yechimlari orasida eng yaxshi va o'ziga xos deb topilgan javoblarni e'lon qiladi. Mashg'ulot jarayonida guruh a'zolarining faoliyatlari ularning ishtiroklari darajasiga ko'ra baholab boriladi.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodi - so'z yuritilayotgan metod Ye.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.Ya.Bush tomonidan qayta ishlangan.

«Fikrlarning shiddatli hujumi» metodining mohiyati quyidagichadir;

-jamo'a orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;

-o'quvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

«6x6x6» metodi - ushbu metod yordamida bir vaqtning o'zida 36 nafar o'quvchini muayyan faoliyatiga jalb etish orqali ma'lum topshiriq yoki masalani hal etish, shuningdek guruhlarning har bir a'zosi imkoniyatlarini aniqlash, ularning qarashlarini bilib olish mumkin. «6x6x6» metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6ta guruh o'qituvchi tomonidan o'rta tashlangan muammo (masala)ni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi 6 ta guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi 6 ta guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zoari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

«Aqliy hujum» metodi - mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llaniladigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish, shuningdek, o'z ta'savvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma hamda malakalarni hosil qilishga rag'batlantiradi. Ushbu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi. «Aqliy hujum» metodi tanlab olingan mavzular doirasida ma'lum qadriyatlarni aniqlash, ayni vaqtda ularga muqobil bo'lgan g'oyalarni tanlash uchun sharoit yaratadi.

Mashg'ulotlar jarayonida «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda bir necha qoidalarga amal qilish talab etiladi. Ushbu qoidalar quyidagilardir.

1.Mashg'ulot ishtirokchilarini muammo doirasida keng fikr yuritishga undash, ular tomonidan kutilmagan mantiqiy fikrlarning bildirilishiga erishish.

2.Har bir o'quvchi tomonidan bildirilayotgan fikr yoki g'oyalar miqdori rag'batlantirilib boriladi. Bu esa bildirilgan fikrlar orasidan eng maqbullarini tanlab

olishga imkon beradi. Bundan tashqari fikrlarning rag'bantlantirilishi navbatidagi yangi fikr yoki g'oyalarning tug'ilishiga olib keladi.

3. Har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikr yoki g'oyalari asoslanishi hamda ularni o'zgartirishi mumkin. Avvalo bildirilgan fikr (g'oya)larni umumlashtirish, turkumlashtirish yoki ularni o'zgartirish ilmiy asoslangan fikr (g'oya)larning shakllanishiga zamin hozirlaydi.

4. Mashg'ulot jarayonida o'quvchilarning xar qanday faoliyatlarini standart talabalar asosida nazorat qilish, ular tomonidan bildirilayotgan fikrlarni baholashga yo'l qo'yilmaydi. Agarda ularning fikr (g'oya)lari baholanib boriladigan bo'lsa, o'quvchilar o'z diqqatlarini shaxsiy fikrlarini ximoya qilishga qaratadilar, oqibatda ular yangi fikrlarni ilgari surmaydilar. Mazkur metodni qo'llashdan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarni muammo xususida keng va chuqur fikr yuritishga **rag'bantlashtirish ekanligini e'tibordan chetda qoldirmagan holda ularning** faoliyatlarini baholab borishning har qanday usulidan voz kechish maqsadga muvofiqdir. Ushbu metoddan samarali foydalanish maqsadida quyidagi qoidalarga amal qilish lozim;

- O'quvchilarning o'zlarini erkin his etishlariga sharoit yaratib berish;
- G'oyalarni yozib borish uchun yozuv taxtasi yoki varaqlarni tayyorlab qo'yish;
- Muammoni aniqlash;
- Mashg'ulotlar jarayonida amal qilinishi lozim bo'lgan shartlarni belgilash (O'quvchilar tomonidan bildirilayotgan har qanday g'oya baholanmaydi, O'quvchilarning mustaqil fikr yuritishlari, shaxsiy fikrlarini ilgari surishlari uchun qulay muhit yaratiladi, g'oyalarning turlicha va ko'p miqdorda bo'lishiga ahamiyat qaratiladi, boshqalar tomonidan bildirilayotgan fikrlarni yodda saqlash, ularning fikrlariga tayangan holda yangi fikrlarni bildirish, bildirilgan fikrlar asosida muayan xulosalarga kelish kabi harakatlarning o'quvchilar tomonidan sodir etilishiga erishiladi;

- Bildirilayotgan g'oyalarni ularning mualliflari tomonidan asoslanishiga erishish va ularni yozib olish;
- Qog'oz varaqlari g'oyalar bilan to'lgandan so'ng ularni yozuv taxtasiga osib qo'yish;
- Boshqalar tomonidan bildirilgan fikrlar ustidan kulish, kinoyali sharhlarning bildirilishiga yo'l qo'ymaslik;
- Yangi g'oyalarni bildirish davom etayotgan ekan, muammoning yagona to'g'ri yechimini e'lon qilishga shoshilmaslik.

“Tarmoqlar” metodi – o'quvchini mantiqiy fikrlash, umumiy fikr doirasini kengaytirish, mustaqil ravishda adabiyotlardan foydalanishni o'rgatishga qaratilgan bo'lib og'izaki yoki yozma tarzda o'tkazilishi mumkin.

“3x4” metodi – bunda o'quvchilarni erkin fikrlashni, keng doirada turli g'oyalarni bera olishi, ularni ta'lim jarayonida yakka, kichik guruh holda tahlil uyeshib xulosa chiqara olishi, ta'rif bera olishiga qaratilgan.

“Blits – o'yin” metodi – harakatlar ketma katligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o'rganayotgan predmeti asosida ko'p, xilma xil fikrlardan, ma'lumotlardan kerakligini tanlab olishni o'rgatishga qaratilgan.

“Intervyu” texnikasi” – o'quvchiga savol berish, eshita olish, to'g'ri javob berish, savolni to'g'ri tuzishni o'rgatishga qaratilgan.

“Iyrarxiya” texnikasi – oddiydan murakkabga, murakkabdan oddiyga o'tish usullarini qo'llash orqali ularni mantiqiy, tanqidiy, ijodiy fikrlashga o'rgatishga qaratilgan.

“Bumerang” texnikasi – o'quvchilarni dars jarayonida, darsdan tashqarida turli adabiyotlar, matnlar bilan ishlash, o'rganilgan materialni yodida saqlab qolish, so'zlab bear olish fikrini erkin holda bayon eta olish hamda bir dars davomida barcha o'quvchilarni baholay olishga qaratilgan.

“O'quvchi” treningi – o'quvchilar bilan individual holda ishlash o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi to'siqni yo'q qilish, hamkorlikda ishlash yo'llarini o'rgatishga qaratilgan.

“O‘qituvchi shaxsi” treningi – o‘qituvchining innovatsion faoliyatini ochib beruvchi “o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablar” mavzusidagi trening mustaqil fikirlashga, ijodiy insho yozish orqali fikirlarni bayon qilishga qaratilgan.

“Muloqot” texnikasi – o‘qituvchilarni auditoriya diqqatini o‘ziga jalb qilish, dars jarayonida hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish hamda uni tashkil etishni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan.

“Boshqaruv texnikasi” – o‘qituvchilarni auditoriyani boshqarishdagi usullari hamda ish jarayonida o‘qituvchilarni boshqarish usullari bilan tanishtirish va shunga o‘rgatishga qaratilgan.” [17:9].

Ana shunday texnologiyalardan ustalik bilan foydalanish har qanday ustoz muallimning dunyoqarashiga, o‘qituvchining o‘z-o‘zini tarbiyalanganlik darajasiga, qobiliyatiga, irodasiga, diqqatiga, kuzatuvchanligiga, tashkilotchiligiga va hokozo. bog‘liq bo‘lib hisoblanadi.

Kishining g‘oyaviy maslagi uning e‘tiqodiga, tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari haqidagi tushunchalari tizimiga, ya‘ni dunyoqarashiga bog‘liq. Faqat kishining dunyoqarashi shaxsning psixologiyasini belgilashda asosiy omil sifatida o‘qituvchining g‘oyaviy e‘tiqodigina emas, balki uning g‘oyaviy qiyofasini, xatti-harakatini, bolalarga ta‘sirini belgilaydi. O‘qituvchining dunyoqarashi jamiyatimizda barqaror bo‘lgan g‘oyalar, tushunchalar, nazariyalarni o‘zida aks ettiradi.

Dunyoqarash - faqat atrofdagi mavjudotni to‘g‘ri tushunish, bilish yoki bilimdan iborat bo‘lmaydi. Ana shu tasavvur kishi tomonidan yaxshi o‘zlashtirilgan, bevosita his qilish natijasida kelib chiqqan va yaxshi tafakkur qilingan bo‘lishi zarur. Faqat ana shundagina ular e‘tiqodga aylanadi, inson o‘z hayoti va faoliyatida ularga amal qila oladi.

Passivlik, loqaydlik, voqyelikka yuzaki munosabatda bo‘lish singari hollar o‘qituvchi dunyoqarashiga yotdir. Uning e‘tiqodi aktiv faoliyat natijasi hisoblanib, yosh avlodni milliylik ruhida tarbiyalashga, buyuk davlat quruvchisini tarbiyalashga qaratilgan.

O'qituvchining ilg'or falsafiy va ijtimoiy dunyoqarashi mustaqillik voqiyeligi zaminida – fan, adabiyot, san'at, jamiyat a'zolarining faoliyati, yaratuvchilik mehnati bilan shug'ullanish natijasida tarkib topadi.

Fizik atomning tarkibiy qismlarga bo'linishi bilan tanishmoqda, ximik tabiatdagi moddalar birdan ro'y beradigan sakrash natijasida o'zgarishini, miqdor o'zgarishlari sifat o'zgarishiga o'tishni o'z ko'zi bilan ko'rib, ishonch hosil qilmoqda, materiyaning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqani kuzatmoqda; ishlab chiqarish ta'limi o'qituvchisi nazariya bilan amaliyotni o'zaro bog'lab, aqliy va jismoniy mehnat, shaxsning garmonik o'sishiga qanday ta'sir etishini kuzatib boradi.

Pedagogning bilim darajasini barcha fanlar bilan boyitishda, uning qaysi maktabda – boshlang'ich maktabdami yoki o'rta maktabdami – ishlashi hech qanday rol o'ynamaydi.

O'qituvchining o'z-o'zini tarbiyalashi. O'qituvchi hamma vaqt jamiyatdagi hukmron g'oyalarning targ'ibotchisi bo'lishi bilan birga, uning o'zi ham shu jamiyat ta'sirida shaxs sifatida tarkib topa boradi.

Pedagoglik ko'p mehnat talab qiluvchi kasblardan biridir. Darslarda, qoloq o'quvchilar bilan olib borilgan mashg'ulotlarda, sinfdan tashqari ishlarda, maktabdagi majlis va metodika kengashlarida, maktabdan boshqa joylarda katta mehnat sarf qilib, o'z uyiga qaytib kelgan o'qituvchini yana o'quvchilarning dastadasta daftari kutib turadi. Bu daftarlarni u tekshirishi, tuzatishi, ularga baho qo'yishi zarur. Navbatdagi darsga tayyorlanish uchun sarf qilinadigan vaqt va mehnatni aytmaydizmi!?

O'qituvchining xarakterli xislatlaridan biri – bu mehnatga muhabbat.

Buning ustiga o'quvchilar o'qituvchining faqat yuksak axloqiy pokliginigina emas, balki uning adolatsizlikka qarshi murasozlik, tekinxo'rlik, nopoklik, amalparastlik, ochko'zlik singari salbiy sifatlariga qarshi kurash olib borish singari hislarini ham o'ta qadrlaydilar. Faqat o'zi tarbiyalayotgan bolalar orasidagina emas, balki butun aholi o'rtasida ana shunday salbiy xususiyatlarga qarshi

kurashadigan o'qituvchilargina yoshlar va o'smirlar orasida haqiqiy hurmatga sazovor bo'ladilar.

«**Tabiatan o'qituvchi bo'lib tug'ilish kerak**». Bu iboradan ayrim hollarda juda barvaqt uyg'onadigan pedagogik iste'dodni tushunish mumkin. Tasodifan o'qituvchi bo'lib qolgan shaxs pedagoglik faoliyatidan hech qanday zavq olmaydi, binobarin, u bolalar bilan ishlay olmaydi.

Yaqinda bir yosh muallima bilan suhbatlashishga to'g'ri keldi:

U: «Bilasizmi, men yaxshi joylashib olganman. Katta shahar, yangi maktab, yaxshi kvartira... Faqat bir masala – bolalar, buning ustiga o'g'il bolalar bilan ovora bo'lish jig'imga tegadi, xolos. Juda tajang bo'laman», dedi. Bunday pedagog tuzatib bo'lmaydigan zarardan boshqa nima ham qila oladi? Bordi-yu yosh o'qituvchi zarur darajada bilimga va pedagoglarga xos sifatga ega emasligi haqida rahbar qat'iy ishonch hosil qilsa, haqli tarzda, vijdonan aytganda, undan voz kechish kerak, chunki hamma elakda qolaverishi mumkin emas. Xalq bizga o'zining eng aziz jig'argoshasini – bolalarini ishonib topshiradi!.. Demak, bu – eng muhim masala. O'qituvchi – bu iste'dod demakdir. O'z iste'dodiga muvofiq tarzda kasb tanlagan kishi baxtlidir.

Iste'dod deganda shaxsning muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishga qaratilgan yorqin ifodalangan intilishini tushuniladi. Bu intilish juda barvaqt paydo bo'ladi. Faoliyat esa o'zining murakkabligi, hatto ishda ro'y beradigan muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, insonga katta ichki qoniqish, mamnuniyat bag'ishlaydi. Bir kasbning haqqoniy maftuni bo'lgan irodali kishilarda muayyan maqsad yo'lida qilingan astoydil mehnat tufayli bunday muvaffaqiyatsizlik, odatda sekin-asta tugatiladi, natijada ana shunday kishilar ko'pincha o'zlari dilda sevgan kasbning haqiqiy ustasi bo'lib yetishadilar.

Iste'dod juda barvaqt (hatto ayrim vaqtlarda bolalik vaqtida) paydo bo'lishi sababli, go'yo inson biror kasbga nisbatan muayyan moyillik bilan tug'iladi, degan noto'g'ri tushuncha paydo bo'ladi.

Biror faoliyatga bo‘lgan iste’dod zaminida aniq ifodalangan motiv va maqsad yotadi. “Motiv – bu kishini harakatga undovchi sababdir; Maqsad esa ana shu harakati natijasida erishadigan natijadir.” [4:208].

Motivlar inson ehtiyojlari bilan taqozo qilinadi. Ma’lumki, kishining ehtiyoji moddiy, ma’naviy va mehnatga bo‘lgan ehtiyoj turlariga bo‘linadi. So‘nggi ehtiyoj ma’lum faoliyat yuzasidan iste’dodni namoyish qilishda boshlang‘ich nuqta – asosiy omil hisoblanadi. Moddiy manfaatdorlik ham, hamma madaniy, ma’naviy talablar ham muayyan ishga iste’dod deb nomlasa bo‘ladigan tarzda o‘z-o‘zidan intilish qo‘zg‘amaydi.

Faoliyat yaqin maqsad bilan tartibga solinib, insonning unchalik muhim bo‘lmagan vazifasi va tor doiradagi hayotiy manfaati bilan bog‘langan bo‘lsa, bu holda, psixologiya fani ta’limoti nuqtai nazaridan, «qisqacha» motivlashtirish ro‘y beradi. Bordi-yu, odam o‘z oldiga ulkan, salmoqli, uzoq muddat davomida amalga oshiriladigan, har tomonlama muhim vazifalarni maqsad qilib qo‘ysa, unda «uzoq» motivlashtirish ro‘y bergan bo‘ladi. Birinchi holatdagi motivda (eng yaqin motivlar, vazifalar) qiziqishlar tor doirada, istiqbolsiz bo‘ladi; ikkinchi holda esa (uzoq muddatga mo‘ljallangan motivlar) – keng istiqbol ufqi ochiladi, insonning mehnati muhim voqealarga qaratilib, uning kelajagi porloqroq bo‘ladi. Buning uchun kishida albatta qobiliyat kurtaklari bo‘lishi lozim.

Qobiliyat faolyait jarayonida paydo bo‘ladi va rivojlanadi. Qobiliyatning malaka va uddaburonlikdan farqi shundaki, malaka va uddaburonlik mashq, o‘qish natijasi hisoblansa, qobiliyatning rivojlanishi uchun esa yana iste’dod va zehn, ya’ni inson nerv sistemasida anatomiya-fiziologiyaga oid xususiyatlar bo‘lishi zarur. Ana shu xususiyatning tabiiy zaminida qobiliyat deb ataluvchi psixik xususiyatlar taraqqiy etadi.

Psixologiya fani iste’dodgina tug‘ma bo‘lib, qobiliyat faoliyat jarayonida shakllanadi deb hisoblaydi. Kishi qobiliyati uning bilim va malakasiga bog‘liq holda rivojlanadi.

Iste’dod umumiy va maxsus iste’dod tarzida namoyon bo‘ladi.

Umumiy is'tegdod sohibi bo'lgan kishi faoliyatning bir necha jarayonida muvaffaqiyatli ishlay olish layoqatiga ega bo'lsa, maxsus iste'dod egasi muayyan sohaga, masalan, matematika, musiqa va h.k. ga qobiliyatli bo'ladi.

Pedagoglik qobiliyati iste'dodning o'ziga xos turidir. O'z vazifasini muvaffaqiyatli bajarayotgan o'qituvchida umumiy va maxsus iste'dod kuchli taraqqiy etgan bo'lishi shart emas. Ammo pedagoglik iste'dodi ham maxsus va umumiy iste'dodning ayrim belgilarini o'z ichiga oladi. Masalan, nutq madaniyati tarzidagi maxsus iste'dod egasi bo'lgan pedagog, ana shunday qobiliyatga ega bo'lmagan pedagogga nisbatan muvaffaqiyatliroq ishlashi mumkin.

Pedagoglikning shaxsiy sifati hisobga olish qiyin bo'lgan keng doirada o'z kuchini ko'rsatadi va pedagoglik faoliyatini muvaffaqiyatli bajarishda asosiy omil bo'ladi.

F.N.Gonobolin tasnificha bevosita "Pedagoglikka oid sifatlari (qobiliyatlari) ro'yxati quyidagicha:

1. O'quvchini tushuna bilish qobiliyati, uning pedagogik xususiyatlarini va xarakterini osongina anglay bilish, bilim darajasini, e'tiqodini, axloqiy sifatlarini to'g'ri aniqlash.

2. Bolalar yaxshi o'zlashtirishi va xotirasida saqlab qolishi uchun ularga dars materialini tushunarli qilib yetkaza bilish qobiliyati.

3. O'quvchilarni qiziqтира bilish qobiliyati; ularda tashabbuskorlikka xos ixlos uyg'otish; bolalarda zarur bo'lgan emosiyani uyg'otish, tarbiyalab muayyan ishga jalb qila bilish.

4. Kishilarni ishontira bilish, ularga ijobiy tarbiyaviy ta'sir o'tkazish (so'zda va ishda shaxsiy o'rnak ko'rsatish yo'li bilan).

5. Kollektivni boshqara bilish, intizom joriy qilish, bolalarga ta'lim va mehnat tarbiyasi berish ishini to'g'ri tashkil etishdan iborat bo'lgan tashkilotchilik qobiliyati; dars vaqti va vazifani oqilona taqsimlash, o'quvchilarni o'qitish va ularni ishlab chiqarishda ishtirok ettirish ishini to'g'ri rejalashtirish.

6. Zaruriy pedagoglik nazokati, talabchanlik va bolalarga individual munosabatda bo'lish.

7. O'z ishining natijasini, ro'y berishi mumkin bo'lgan xatolar va qiyinchiliklarni oldindan ko'ra bilish qobiliyati.

8. Ham ta'lim, ham tarbiya sohasida ijodiy ishlash qobiliyati.

9. Ro'y bergan voqyeadan o'z vaqtida tezlik bilan xulosa chiqara bilish.

10. O'z faniga bo'lgan qiziqish asosida dars materialini osonlik bilan yaxshi o'zlashtira bilish va zarur paytda uni takrorlay bilish qobiliyati" [10:79].

Bevosita pedagoglik qobiliyatiga oid xususiyatlar ana shulardan iborat.

O'qituvchi o'quvchilar qobiliyatini aniqlash va dars materialini yaxshi tushuntira bilish iste'dodiga ega bo'lsa-yu, darsda intizom bo'lmasa va bolalar bilim olishga astoydil harakat qilmasalar, bunday pedagog o'z faoliyatida muvaffaqiyat qozona olmaydi. Shuning uchun ham o'qituvchining pedagoglik faoliyatida tashkilotchilik qobiliyati alohida ahamiyat kasb etadi.

O'qituvchi o'qitish jarayonida o'quvchilar jamoasini tashkil qila bilishi, ularni ijtimoiy foydali mehnatga o'rgata bilishi, sinfdan tashqari ishlarni yo'lga qo'yish qobiliyatiga ega bo'lishi, ko'ngil ochar o'yinlarni yo'lga qo'ya olishi, har bir o'quvchiga jamoa ta'sirini o'tkaza bilishi, maktab, o'qituvchilar, ota-onalar va muayyan hayot sharoiti o'quvchilar qalbida ijobiy iz qoldirishga erisha olishi zarur.

Bu vazifani amalga oshirish uchun o'qituvchi, uy sharoitida atiga bittagina o'quvchi bilan shug'ullanuvchi pedagogdan farqli o'laroq, o'ziga xos sifatlardan tarkib topgan ijobiy xislatlar yig'indisiga ega bo'lishi lozim.

O'qituvchining tashkilotchilik faoliyati, tarbiyaga xos murakkab tadbirlardan tashqari, ish yakuniga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi ikir-chikirlardan iborat bo'ladi.

Tashkilotchilik qobiliyati yaxshi taraqqiy etgan pedagoglarda vaqt o'tishi uchun mas'uliyat hissi paydo bo'ladi. Natijada ular dars rejasida biror narsaga qancha vaqt ajratilgan bo'lsa, amalda ham o'shanga vaqt sarflaydilar.

Tashkilotchilik qobiliyati kuzatuvchanlikni va o'z vaqtini to'g'ri taqsimlay bilishni talab etadi. Bu xislat ro'y bergan yangi sharoitga aniq va tez moslashish, tashabbus ko'rsatish., o'quvchilarning xatti-harakatini o'z vaqtida payqash imkoniyatini beradi. O'ta tashabbuskor bo'lmagan pedagoglar orasida ham qobiliyatli o'qituvchilar bo'lganidek, atoqli o'qituvchilarning hammasida ham ana shu sifatlar to'la-to'kis mujassamlashgan bo'ladi, deyish noto'g'ri. Pedagoglikka oid qobiliyatning ayrim turi biror pedagogda yetarli darajada taraqqiy etmagan bo'lishi mumkin. Bunday vaqtda kam taraqqiy etgan qobiliyat o'rini shaxsning boshqa ijobiy fazilatlari bimalol to'ldira oladi. Ammo shu narsa ayonki, tadbirkor o'qituvchi o'quvchilar jamoasini o'z harakatini sustkashlik ilan rejalashtiruvchi va yolchitib ishlamaydigan o'qituvchiga nisbatan osonlik bilan uyushtirib, bu jamoa ishini ko'ngildagidek yo'lga qo'ya oladi. Turli xildagi qobiliyat va iste'dodning boisi shundaki, ana shunday ijobiy fazilat tufayli pedagoglik faoliyati ancha yengil kechadi.

O'qituvchining yana bir ma'naviy fazilati uning o'z faoliyati natijasini oldindan ko'ra bilish qobiliyatidir. O'quvchi shaxsini oldindan ko'rish va loyihalashtirish, kuzatuvchanlik hamda xayol kabi psixik sifatlarga asoslangan bo'lib, bularni pedagogik kuzatuvchanlik va pedagogik xayol deb atash mumkin. Xayol tufayli o'qituvchi o'z o'quvchilarini kamolotga yetish istiqbolini aniqlaydi, bu ish har bir talabaga individual munosabatda bo'lib, unga nisbatan zarur sezgirlik va mehribonlik ko'rsatish natijasida ro'yobga chiqadi.

O'qituvchilarning pedagoglik faoliyatini o'rganish bilan shug'ullangan Leningrad universiteti professori N.V.Kuzminaning yozishicha, u 44 o'qituvchining faoliyati bilan tanishgan; shulardan 23 tasi muayyan sohada zo'r iste'dodga ega bo'lgan (texnika, artistlik, adabiyot, sport). Iste'dodli o'qituvchilarning ko'pchiligi o'z talantlaridan pedagoglik faoliyatida ham foydalanganlar. Bunday o'qituvchilar 23 kishi ichida 19 kishini tashkil etgan.

Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, qobiliyatsiz (muayyan bilimga ega bo'lib, halol va fidokorona mehnat qiluvchi, ammo shunga qarmay o'z faoliyatida

muvaffaqiyatga ega bo'la olmaydigan o'qituvchilar nazarda tutiladi) o'qituvchilarni shartli ravishda uch guruhga bo'lish mumkin:

1. Bevosita pedagogik qobiliyatlari yo'q va kam bo'lgan o'qituvchilar.
2. Pedagoglik ishida zarur bo'lgan umumshaxsiy sifatlarga ega bo'lmagan o'qituvchilar (bu sifatlarni boshqa kasbda ham asosiy shart hisoblanadi).
3. Kam taraqqiy etgan birinchi va ikkinchi turdagi sifatlarga, ya'ni o'qituvchi uchun zarur bo'lgan bevosita pedagoglik sifatlari va umumiy turdagi sifatlarga ega bo'lgan o'qituvchilar.

Ta'lim-tarbiya ishiga bo'lgan qobiliyatning o'sishi. Faqatgina iste'dod belgisi tug'ma bo'lgani sababli turli xil qobiliyatning barchasi faoliyatda o'sadi. Shu sababli bevosita pedagoglik qobiliyati qay usulda o'sishi, iste'dod belgisiga ega bo'lmagan o'qituvchi hamda tarbiyachi nima uchun ana shunday faoliyat bilan shug'ullanishi va iste'dodga ega bo'lish uchun qanday tadbirlarni amalga oshirishi zarurligi singari masalalar tahlili diqqatga sazovordir.

Qobiliyat kurtaklarining ilk o'sishi katta yoshdagi bolalarda «oiladagi mehnat taqsimoti» tufayli, o'zidan kichik yoshdagi bolalarga nisbatan qandaydir burchga ega bo'lish tufayli ro'y beradi.

Har xil qobiliyatlarning ro'y berishida turli o'yinlarning roli kattadir. Bunday o'yinlar tufayli, qisman tashkilotchilik qobiliyatining kurtaklari paydo bo'ladi.

Pedagoglik qobiliyatini tarbiyalashda o'qituvchilarning o'qishdagi o'zaro yordami hamda qo'shimcha o'tkaziladigan darslar ham katta rol o'ynaydi.

Jamoat tashkilotlari, o'qituvchining kasb tanlashga doir maslahatlari ham pedagoglik qobiliyatining o'sishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan hisoblanadi.

Pedagogik amaliyot jarayonida bo'lgusi o'qituvchining xarakteridagi nuqsonlar aniqlanadi (ortiqcha uyatchanlik, qattiqqo'llik, qo'rslik va qo'pollik, mas'uliyatsizlik) va ularni bartaraf etish chorasi qidiriladi.

Pedagoglik qobiliyatini o'stirishda o'qituvchining o'z fani bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishi va umumiy saviyasi tinmay oshib borishi katta ahamiyatga

ega. Ta'lim-tarbiya metodikasi, pedagogika, didaktika, psixologiya, yuqori nerv faoliyati fiziologiyasi singari inson haqidagi fanlarni bilish, siyosiy, badiiy adabiyotni muttasil o'qib borish – o'qituvchining ma'naviy hayotini yo'lga qo'yishdagi asosiy zamin hisoblanadi, agar, shunday ibora bilan aytish mumkin bo'lsa, ana shu xislat urug'i sepiladigan zamin yuqorida aytilgan faoliyat tufayli yumshatilib, o'g'itlanadi, ekishga tayyorlanadi.

O'qituvchining kuzatuvchanligi. Bir ko'z tashlashda buyum va hodisalardagi muhim, lekin ko'zga kam tashlanadigan narsalarni payqab olishni kuzatuvchanlik deyiladi.

Insonning bu psixik holati idrokning kuchi va chuqurligicha, ya'ni bizning sezgi organlarimizga ta'sir etib turgan narsa va hodisalarni aks ettiruvchi psixik jarayonga bog'liq.

Kuzatish idrokning o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan turlaridan biridir. Tashqi dunyo obyektlarini idrok etishning mukammalligi faqat sezgilar (ko'rish, eshitish va boshqalar) ning o'tkirligigagina emas, balki hodisalarni analiz qila bilish, narsalarning belgilarini farq qilish (ayirish, ajratish), ular o'rtasidagi bog'lanishlarni aniqlash, bilib olish, shunga o'xshashlarga bog'liq. Idrokda tafakkur va xotira, insonning o'tmishdagi tajribasi muhim rol o'ynaydi. Zotan kuzatuvchan pedagog – bu sinfda nima bo'layotganini faqat yaxshi ko'rib va eshitibgina qolmay, balki o'zining sermulohazaliligi, tasavvurga boyligi bilan farq qiluvchi, hodisalar mohiyatini tushuncha oladigan kishidir.

Birovlar jonsiz buyumlarga taalluqli hamma narsalarni yaxshi sezadi, ular biror buyumdan qilingan materialning sifatini juda durust bilishadi, uning afzalligi va kamchiligini osonlikcha anglab oladilar. Shunday kishilardan yaxshigina ustalar, amaliy kasbning boshqa vakillari yetishadi.

Boshqa kishilar narsalarning fizik sifatlarini yaxshi seza olmaydilar, biroq kishining ichki dunyosi xususiyatlarini, uning psixik jarayoni, kechinmalari va shunga o'xshashlarni durustroq payqaydilar.

O'qituvchi faoliyatida kuzatuvchanlikning har ikki turi ham zarur.

Shunday qilib, kuzatuvchanlik o'qituvchining mehnatida zarur bo'lgan, muhim psixik xususiyatdir.

O'qituvchining diqqati. O'qituvchining kuzatuvchanligida, umuman uning pedagogik faoliyatida muvaffaqiyat qozinishi uchun diqqatning, ya'ni ongning muayyan narsa va tashqi dunyo hodisalariga yo'naltirilganligining katta ahamiyati bor. Ma'lumki. Kishi diqqat qilganda, bosh miya qobig'ida yuksak qo'zg'alish markazi paydo bo'ladi, ayni vaqtning o'zida bu markazning atrofida yarim shar qobig'ining qolgan qismlari tormozlangan holda bo'ladi. Miya qobig'ining bu fiziologik holati ba'zi obyektlarning aniq idrok etishni hamda shu vaqtning o'zida boshqalaridan chalg'ishini taqozo etadi.

Diqqat ikki asosiy turga ajratiladi: ixtiyorsiz, ya'ni kishining ongsiz maqsad va harakati bilan biror obyektga yo'naltiriladigan diqqat hamda qo'yilgan maqsad tufayli yuzaga keladigan – e'tiborni narsaga tortadigan va kishidan muayyan g'ayrat, iroda harakatini talab qiluvchi ixtiyoriy diqqat.

O'qituvchi uchun diqqatning har ikki turi zarurdir.

Psixologiya fanida bu sohada ko'p tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, I.V.Straxov darsda 28 o'qituvchini pedagogik kuzatadi va quyidagilarni aniqlaydi.

Diqqatning markazlashuvi o'qituvchi uchun butun dars jarayonida (o'quv materialini tushuntirishda ham, o'quvchilarning javobini tanglashda ham) zarurdir.

Diqqatning markazlashuvi va barqarorligi yaxshi o'qituvchilarda diqqatning harakatlanuvchanligi, uning yengil ko'chishi hamda mavjud sharoitni hisobga olgan holda tezda ish tuta bilishi bilan uzviy bog'liq.

Pedagog ishida diqqat taqsimlanishi ham muhimdir. Diqqatning teskarisi – parishonxotirlik ham mavjuddir.

Parishonlik nerv sistemasining kuchsizligi yoki biror narsaga kuchli jalb etilish oqibatida ro'y beradi.

O'qituvchining aqliy faoliyati. Insonning aqliy faoliyati biror hodisani, muayyan bir paytda bevosita kuzatib ko'rmasdan yoki sezgi va idrok hosil qilgan

narsani tekshirmasdan xulosalar chiqarish bilan tavsiflanadi. Tabiat, jamiyat, insoniyat taraqqiyotining barcha xususiyatlari tafakkur yordamida bilib olinadi.

Tafakkur narsa yoki hodisa ayrim ayrim elementlari va belgilarining ajralishidan (analizidan) hamda bir narsa yoki hodisa qismlari o'rtasida fikran aloqa o'rnatishdan, ularni bir butun narsaga birlashtirishdan (sintezdan) iborat. Tafakkur jarayonida ayrim obyektlarni taqqoslash, ular o'rtasidagi o'xshashlik va umumiylikning, mavhumlik yoki umumiy tasavvurni, ya'ni umumiy xususiyatga ega bo'lgan narsa va hodisalar birlashuvini taqqoslashning katta ahamiyati bor.

Psixologiya fani tafakkurni ikki turga, ya'ni: nazariy va amaliy turlarga ajratadi.

Odatda olim, faylasuf, matematik va boshqa umumlashtiruvchi fan vakillarida nazariy tafakkur ustun bo'ladi.

O'qituvchining ishida hissiyot. "Axloqiy... his deganda biz jamiyat yuzaga keltirgan, axloq kategoriyasidan boshlab, axloqning sodir bo'lishi natijasida borliq hodisalarni idrok etishda kishi kechiradigan hamma hislarni nazarda tutamiz" [4: 246].

Kishida axloqiy hisning shakllanishi uning ongida mazkur jamiyatda yoki biron kollektivda yuzaga kelgan muayyan axloq normasi, qoidasining mustahkamlanish jarayoni bilan uzviy bog'liqdir.

Axloqiy hisga quvonch, kishilarga qoyil qolish, axloq normalarining yuzaga kelishi natijasida o'zidan mamnun bo'lish singarilar kiradi.

O'qituvchining psixik holati. Pedagogning psixik holatlarini tavsiflab, N.D.Levitov, muvaffaqiyatli o'tishini shart qilib qo'yadigan, o'qituvchining darsga pedagogik tayyorgarligi mavjudligi haqida gapiradi.

Tarbiyachining muhim psixik holati o'z so'zining haqligiga chindan ishonch hosil qilishdadir.

Xarakterida lozim bo'lgan psixik holatning asta-sekin mustahkamlanib borish yo'li bilan muvaqqat jarayonlardan chiqib, bora-bora shaxsning barqaror

sifatiga aylanadki, bunday sifatga ega bo‘lgan kishi pedagoglik faoliyati bilan bemalol shug‘ullana oladi.

O‘qituvchi irodasining umumiy tavsifi. Iroda – psixik hayotning bir tomoni bo‘lib, u kishi harakatining ongli maqsad sari yo‘nalishida ifodalanadi. Bevosita ichki va tashqi qarama-qarshiliklarni bartaraf etish bilan bog‘langan harakatga shaxsning irodaviy harakati deb ataladi.

Irodaning fiziologik asosi vaqtli bog‘lanishlarning murakkab tizimi hisoblanib, u tashqi dunyo ta’sirida bosh miya yarim sharlarining po‘stlog‘ida tarkib topadi “hamda xatti-harakatning dastlabki turli xil sabablari tashqi hissiy qo‘zg‘alishning asosida yotadi” [11: 102].

Irodaning fiziologik mexanizmida bosh miya to‘qimalarining o‘zaro bir-biri bilan bog‘lanishlari katta rol o‘ynaydi. Bu haqda I.P.Pavlov shunday yozadi:

“...Miya po‘stining kinestetik hujayralari organizmga tashqi muhitda va shuning bilan birga ichki jarayonlardan bo‘ladigan taassurotlarni qabul qiladigan miya po‘stining boshqa hamma hujayralari bilan aloqaga kirishi mumkin va haqiqatan ham aloqaga kiradi” [12:146].

Ko‘zlangan maqsadga erishish yo‘lidagi qiyinchiliklarni yengish uchun kishi irodaviy kuch sarf qilmog‘i lozim. “Irodaviy kuchni fiziologik jihatdan bosh miya yarim sharlarining nerv to‘qimalaridagi qo‘zg‘alish hamda tormozlanish jarayonlari o‘rtasidagi kurash deb tasavvur qilish mumkin” [13:89].

Inson o‘z irodasi bilan yengishi lozim bo‘lgan ichki va tashqi qarama-qarshiliklar nimalardan iborat?

Birinchisi kishi o‘z oldiga qo‘yilgan vazifani bajarishdagi shaxsiy istak (shu vaqtdagi dangasalik, uquvsizlik bilan qilingan ish, boshqa biron ishni bajarishga moyillik, charchash), tashqi qarama-qarshilik esa obyektiv ish vaqtidagi qiyinchiliklar hisoblanadi (ishdagi turli xil to‘sqinliklar).

Kishi katta miya yarim sharlarining «umumiy faoliyatiga» asoslanib turib iroda kuchi bilan turli qarama-qarshiliklarni bartaraf etadi, shuningdek, u yerda insonning dastlabki hayot va mehnat tajribalarida tarkib topgan ko‘pgina nerv

bogʻlanishlari mavjuddir (uyqing keladi-yu, biroq ishga oʻz vaqtida borish haqidagi fikr senga tinchlik bermay, oʻrindan turishga majbur qiladi).

Nima sababdan ayrim kishilar qiyinchilikni oson va tezda bartaraf etadilaru, boshqalari esa aksincha juda sekin va qiyinchilik bilan bartaraf etadilar. Fiziologik nuqtai nazardan bu hodisa ayrim kishilarda tashqi taʼsir natijasida miya poʻstlogʻida mustahkam bogʻlanish tizimi tarkib topgan boʻlsa (Pavlovning «dinamik stereotip»lariga koʻra), boshqalarida esa bu holat kamroq rivojlangan deb tushuntiriladi. Irodaviy xatti-harakatda yana bir ikkinchi signal sistemasi mavjudki, u insonning nutq orqali aloqa qilish vositasi bilan bogʻliq boʻlgan miya yarim sharlaridagi nerv bogʻlanishlaridir.

Bizga ilk taʼsir etuvchi tashqi dunyoning bu barcha «qoʻshimcha» inʼikosi insonga oʻz-oʻzini boshqarishda (fikrlashda, nutqda, his-hayajonda), shuningdek, boshqalarga, maʼlum maqsadlar bilan voqyelikka taʼsir etishda katta yordam qiladi.

Oʻqituvchi irodasining baʼzi sifatleri haqida. Kishining asosiy irodaviy xususiyatlaridan biri uning muayyan maqsadga intiluvchanligidir.

Insonning hayot faoliyatida maqsadning ahamiyati haqida I.P.Pavlov koʻpgina qiziqarli fikrlarni, jumladan, “maqsad refleksi” degan termini olgʻa suradi.

Maqsad refleksi muhim hayotiy ahamiyatga ega boʻlib, u “har birimizning asosiy hayotimizning energiyasidir. Hayot faqat kishi doimo erishayotgan, lekin hech qachon toʻliq erisha olmaydigan maqsadga intilsagina ajoyibdir”[12].

“Agar har birimiz bu refleksni oʻzimizning qimmatbaho vujudimizning bir qismi deb ardoqlasak, agar ota-onalar va oʻqituvchilar tabaqasi oʻzlarining butun vazifalarini shu refleksni egallagan ommaga uni mustahkamlash va taraqqiy ettirishni bosh masala deb qarasar, bu vaqtda biz tarixiy hayotimiz va ijodiy fikrlashimizning bir qancha koʻrinishlariga tatbiq etishimiz lozim shunga erishishimiz ham mumkin”[12].

Dars vaqtida yaxshi intizom boʻlishining asosiy shartlaridan bir oʻqituvchining qatʼiy xohishidir.

Irodaga faqat iroda ta'sir qilishi va intizomni faqat intizomli kishi saqlashi to'g'risida K.D.Ushinskiy aytib o'tgan edi.

O'qituvchining irodaviy sifatlaridan biri sabotlilik bo'lib, boshlangan ishini muvaffaqiyat bilan oxiriga yetkaza bilishidir. Pedagogning bu irodaviy sifatlariga, uning matonatli, qiyin holatda o'zini tuta bilishida, shuningdek, o'quvchilarga qat'iy talablar qo'ya bilishida namoyon bo'ladi.

Irodaviy sifat sabr-toqatni o'qituvchining o'ziga xos sifati deyish mumkin. Izchillik ham bo'lib, o'quvchilarga bo'lgan talablardan ajralmagan holda namoyon bo'ladi.

O'qituvchi irodasini tarbiyalash. Pedagogik faoliyatda o'qituvchining irodaviy sifatleri juda muhim rol o'ynaydi.

Psixologiya fani irodani tarbiyalashning o'qituvchiga ma'lum bo'lgan juda ko'p tomonlari, xilma-xil usullarini ko'rsatib beradi. Shuning uchun ham irodani mustahkamlash pedagogning o'z faoliyatida katta muvaffaqiyatga erishishida juda muhimdir.

Iroda odam psixikasidagi hamma narsalar kabi alohida jarayon emas, u odamning umumiy ma'naviy o'sishi, ilg'or fikrlarning chuqurlashuvi, e'tiqodning o'sishi, aqliy saviyaning kengayishi, ijtimoiy his-tuyg'u shakllanishi barobarida o'sadi va mustahkamlanadi.

2.2. Talabalarda ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini pedagogik faoliyat jarayonida shakllantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalardan foydalanish

O'qitish jarayonida o'quvchilarga shaxs sifatida qaralishi, turli pedagogik texnologiyalar hamda zamonaviy interfaol metodlarning qo'llanilishi ularni mustaqil, erkin fikirlashga, izlanishga, har bir masalaga ijodiy yondoshish, ma'suliyatni sezish, ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish, tahlil qilish, ilmiy adabiyotlardan umumli foydalanishga, eng asosiysi, o'qishga, fanga, pedagogga va kasbga bo'lgan qiziqishlarini kuchaytiradi.

Bunday natijaga erishish amaliyotda o'quv jarayonida innovatsion va axbarot texnologiyalarini qo'llashni taqazo etadi. Ular juda xilma – xil bo'lib quyida ba'zilarini keltirib o'tamiz:

KBI (KUZATISH, BAHSLASHISH, ISHONTIRISH) TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarning hayotda faol o'rni topishlari, peshqadamlik – sardorlik sifatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari, shuningdek, o'zgarlar fikrini hurmat qilgan holda dalil keltira olish, o'z fikrini isbotlay olish, asoslash, ishontirish, munozara olib borish mahoratlarini hamda murosaga kelish, izlanish qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Bu texnologiya bilan o'tkaziladigan mashg'ulot o'quvchilardan alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Mashg'ulot mavzusi o'quvchilar auditoriyasiga oldindan ma'lum qilinadi, vazifalarni bajarish uchun tayyorlanishga beriladigan aniq vaqt, mavzu mazmuni, uning murakkabligi va darajasiga qarab belgilanadi [17:45].

Ushbu mashg'ulot bahs – munozara uslubiga asoslangan bo'lib, o'zining aniq o'tkazilish vaqti va tartibiga egadir. O'qituvchi dastlab o'quvchilarni mashg'ulot o'tkazish tartib qoidalari bilan tanishtiradi va ularni kichik guruhlariga ajratadi. Misol tariqasida: Biz tajriba sinov guruhlarimiz talabalarida tashkilotchilik

ko'nilma, malaka, ma'lumotlarini yanada shakillantirish maqsadida 8 – dekabr Konstitutsiya kuniga bag'ishlab **“Siz qonunni bilasizmi”** tadbirini tashkillashtirdik. Unda bilim yurti guruhlaridan 3tasini olib tadbir shartlarini berish va o'zlari mustaqil tayyorlanishlarini tushuntirish lozim.

Tadbir shartlari:

- 1). Mustaqil ravishda o'zlari guruhda sardor tayinlash
- 2). Mavzu yuzasidan guruhlararo savol – javob. (Har bir guruh raqib guruhga 10 tadan savol tuzib kelishi lozimligi)
- 3). Mavzuga oid erkin mavzu
- 4). Sardorlar bahsi

Tadbir shartlari uchala guruhga ham e'lon qilingandan so'ngra ular mustaqil ravishda tayyorlana boshlaydilar.

Tadbirda tayyorgarlik ucun bir hafta muhlat beriladi.

Tadbirda hay'at a'zolari etib o'quv yurtining professor - o'qituvchilari, o'quv yurti dekan va dekan muovinlariga tayinlanadi. Shuningdek kuzatuvchilar sifatida o'quv yurti talabalar taklif etiladi. Har bir berilgan javoblar hay'at a'zolari tomonidan “5” ballik tizimda baholanib boriladi va tadbir oxirida hamma ballar hay'at a'zolari tomonidan jamlanib g'olib guruh aniqlanadi va o'quv yurti dekan va dekan muovinlari tomonidan mukofot va faxriy yorliqlar topshiriladi va rag'batlantiriladi.

Ana shunday tadbirlarni masalan: turli xil bayram tadbirlari; “Allomalarimizning asarlariga bag'ishlangan kechalar”, “Quvnoqlar va zukkolar”, “Yosh kitobxonlar”, “Siz qonunni bilasizmi”, kabi tadbirlarni shuningdek amaliy dars jarayonlarida “Kollej direktori” amaliy o'yini kabilarni talabalar o'rtasida tez-tez tashkillashtirib borish natijasida tadqiqot ishlarini olib bordik va tahlil qildik.

Bunday tadbirlarni talabalar o'rtasida tez – tez tashkillashtirish talabalarning bilim darajalarini oshirsa bir tomondan ularning tashkilotchilik ko'nikma, malaka va ma'lumotlarini shakillantirishga olib keladi shuningdek kelajakdagi faoliyat jarayonlarini tashkillashtirishga yengilliklar yaratadi deb oylaymiz.

“IMAK TEXNOLOGIYASI”

(Ishontirish maktabi)

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarni ishontirish va boshqara olish malakasini hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, jamoada va turli xil vaziyatlarda o'zini tuta olishga o'rgatishdan iborat.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'quv jarayoni boshlanishida o'qituvchi o'quvchilarni mashg'ulotni o'tkazish tartib qoidalari bilan tanishtiradi. O'quvchidan biri mashg'ulot shartlariga binoan xonadan chiqadi. Qolgan ishtirokchilar esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatni nazarda tutuvchi muammoli holatni o'ylab chiqadilar, muhokoma qiladilar va tayyorlaydilar. Boshqacha aytganda, muammoli holatni rollarga bo'lingan holda ijro etishga tayyorgarlik ko'radilar. Masalan, o'quvchilar muhim o'quv mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rib kelganlar, ularning hammasi mashg'ulotda ishtirok etishga tayyor va qiziqish katta, lekin ta'lim muasasi rahbariyati mashg'ulot o'rniga barcha o'quvchilarni hovli, ko'chalarni gulzor va bo'g'larni tozalash, tartibga keltirish yoki ta'lim muasasi yoki stadion teatr majlislar zalida o'tkazilayotgan tadbirda zalni to'ldirish uchun borishga ko'rsatma berishi mumkin yoki o'quvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalaridan, o'quvchilik faoliyatlaridan kelib chiqib, sahnalashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ziddiyatga olib keluvchi turli holatlar, vaziyatlarni o'ylab topishlari mumkin. O'quvchilar tanlangan muammoni tayyorlayotgan vaqtda tashqariga chiqqan ko'ngilli qatnashchiga o'qituvchi, dekan o'inbosari rolini o'ynashi kerakligi tushuntiriladi, uni alohida bo'ladigan muammo yoki vaziyat bilan tanishtiriladi, tayyorgarlik uchun aniq vaqt ajratiladi. Bir ozdan so'ng tashqariga chiqib ketgan o'quvchi auditoriyaga taklif etiladi. So'ngra o'quvchilar o'ylab topgan va ular tomonidan sahnalashtirilgan ziddiyatni keltirib chiqaruvchi vaziyat ijro etiladi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan vaziyatni ijro etish vaqtida, ular har xil xarakterdagi o'quvchilar rovida bolib ziddiyatni keltirib chiqarish uchun ularning qiliqlari, odatlari, so'zlari, harakatlarini ishlatadilar.

Dekan o'rinbosari roliagi tinglovchi ushbu ijro etilayotgan sahna ko'rinishida o'zining tashkilotchilik qobiliyati, ishontira olish malakasi, holatni nazorat qilib turishi, turli vaziyatlar va sharoitlarda o'zini tuta bilishi, boshqara olishi, mazkur holatdan tarbiyaviy usullarda foydalangan holda vaziyatning ,ziddiyatning ijobiy yechimiga erisha olishini namoyish eta olishi kerak. Ya'ni o'quvchilarni o'z fikriga ishontira olishi zarur, aks holda ular o'qituvchiga o'z ta'sirlarini k'orsatishlari mumkin.

Mashg'ulotning keyingi bosqichia o'qituvchi guruh bilan birgalikda dekan o'rinbosarining o'zini tutishi, o'z fikriga qay darajada ishontira olishi, uning ma'daniyati va harakatlaridagi ijobiy va salbiy tomonlarini muhokoma qiladi, berilgan muammoli holatdan chiqishning qulay usullarni aniqlaydi, shuningdek uchrab turishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar va ularni yechish usullarini bashorat qiladi.

Mashg'ulotning oxirida o'quvchilar "Murabbiyning tashkilotchilik qobiliyati" mavzusida mustaqil o'qish uchun tarqatma materiallar oladilar.

Izoh: ushbu mashg'ulotning 1-yarmida video kamera yordamida mashg'ulotni to'liq, y'ni o'quvchilarning sahnalashtirilgan muammolarini ko'rsatishlari va uni jamoa bilan yechishda dekanning hatti harakatlari , qo'llagan usullarining hammasi videokassetaga tushiriladi. Mashg'ulotning 2-yarmida videokassetani televizor yoki kompyuter orqali namoyishetiladi. Vidiolavhani namoyish qilish mobaynida uning mazmuni jamoaviy muhokama etilishi mumkin. Bunday tahlil har bir qatnashchining o'zini ko'ra bilishi, kerakli xulosa chiqara olishga katta yordam beradi [9:57].

IMAK texnologiyasiga asoslangan holda dars jarayonida talabalarining tashkilotchilik mahoratlarini yanada takomillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan dars ishlanmalaridan birini misol keltiraman: Bunda amaliy dars jarayonida o'tkazish uchun mo'ljallangan "**Kollej direktori**" usulini olsak unda guruh talabalarini o'qituvchining rejasiga binoan pedagogik kengash a'zolariga tayinlanadi masalan; Asilbek direktor, Nodir o'quv ishlari bo'yicha dekan muovini,

Fazliddin ma'naviyat ishlari bo'yicga dekan muovini, Gulhayo pedagogik kengash kotibi, kafedra mudirlari etib yana 5ta talaba tayinlanadi, qolgan talabalarni guruh rahbarlari va kollejning boshqa rahbarlari etib tayinlab, ularning har birining vazifalarini tushuntiriladi; Direktor tomonidan masalani qo'yilishi masalan; "Navro'z" bayrami tadbirini bilim yurtida o'tkazishni tashkillashtirish rejasini qanday o'tkazishni kengash a'zolari bilan muhokoma qilish va bir xulosaga kelib tadbir o'tkazish uchun javobgar shaxsni belgilash va kengash yakunida pedagogik kengash bayonnomasini tuzishni kotibaga topshirish kabilardan iborat. Muhokoma davomida bildirilgan fikirlardan maqbuli tanlab olinadi va "Navro'z" bayramini o'tkazish tartib rejasi tuzib olinadi.

"SAN" TEXNOLOGIYASI

(uchlik – samarali, axloqiy, nazokatli)

Texnologiyaning maqsadi: o'quvchilarda yakka va jamoaviy, guruh bilan ishlash, ijodiy va tashkilotchilik faoliyati ko'nikmalarini, ishga ma'suliyat bilan yondoshishlarini shakillantirish, ijodiy qobiliyatlari, ijodiy jarayonni va bezash ishlari ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

O'qituvchi o'quvchilarni o'tkaziladigan mashg'ulotning tartib – qoidalari bilan tanishtiradi va o'quvchilarni 3 kishian iborat kichik guruhlarga ajralishini iltimos qiladi.

Kichik guruhlarda o'quvchilar quyidagi rollarga bo'linadi: rassom, adabiy va badiiy muharir, dizayner. Keyin har bir guruh vakillari o'qituvchi stolidan topshiriqli kartochkalar ichidan bittadan tanlab oladilar.

Topshiriqlar quyidagicha bo'lishi mumkin:

- devoriy gazeta(biron mavzuga, bayramga yoki yubileyga bag'ishlangan yoki hazil mutoyibali, satirik yoki o'quv fani yoki guruh faoliyatiga bag'ishlangan kabilar) eskizini tayyorlash;

- bayram yoki biror bir tadbirga chorlovchi afishaning masalan e'lon, tashviqot, taklifnoma eskizini tayyorlash:

- turli tadbirlarga bag'ishlangan taklifnoma pattalarining eskizi va maketini tayyorlash

- tabrik otkritkalarining maketlarini tayyorlash:

- biror tadbir o'tkaziladigan joyni bezatish eskizlarini tayyorlash:

- ikebana tayyorlash.

Kichik guruhlariga topshiriqni bajarib taqdimot qilishlari uchun tayyorlanishlariga 30 daqiqa beriladi.

Tayyorgarlik tugagach, taqdimot boshlanadi. Taqdimot vaqtida guruhlar o'zlari tayyorlagan eskiz va maketlarini barchaga tanishtiradilar, namoyish etadilar va asoslaydilar, jamoaviy ijodiy faoliyatdagi o'z variantlarini himoya qiladilar. Taqdimot tugagach, umumiy muhokoma boshlanadi. Muhokoma jarayonida o'quvchilar bezatilgan, tayyorlangan ishlarga tegishli talablarni aniqlaydilar, o'qituvchining o'zi yoki alohida tuzilgan ijodiy guruh esa o'quvchilar tomonidan bildirilgan fikir va takliflarni maxsus xona taxtasiga yoki vatman qog'ozga yozib boradi.

Mashg'ulot oxirida o'qituvchi o'quvchilarga yuqorida berilgan turli topshiriqlar bo'yicha bir necha namunaviy eskizlardan tarqatadi [9:59].

“BLIS-SO'ROV” USULI

Usulning tavsifnomasi. Ushbu usul o'quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to'g'ri tashkil etishga, mantiqiy fikirlashga, o'rganayotgan predmeti asosida xilma-xil fikirlar, ma'lumotlar ichidan kerakligini tanlab olishni, shu bilan bir qatorda, o'zgalar fikrini hurmat qilish va ularga o'z fikrini o'tkaza olish hamda o'z faoliyati, kunini rejalashtira olishni o'rgatishga qaratilgan.

Usulning maqsadi: ushbu usul orqali o'quvchilarga tarqatilgan qog'ozlarda ko'rsatilgan harakatlar ketma-ketligini avval yakka tartibda mustaqil ravishda

belgilash, kichik guruhlarda o'z fikrini boshqalarga o'tkaza olish yoki o'z fikrida qolish, boshqalar bilan hamfikir bo'la olish kabi ko'nikmalarni shakillantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi.

Ushbu usul bir necha bosqichda o'tkaziladi:

- o'qituvchi o'quvchilarga ushbu mashg'ulot bir necha bosqichda o'tkazilishi haqida tushuncha beradi. Har bosqichga mo'ljallangan vazifalarni bajarishga aniq vaqt berilishi, tinglovchilar esa shu vaqtdan unumli foydalanishlari kerakligi haqida ularni ogohlantiradi:

- o'qituvchi hamma o'quvchilarga alohida- alohida tarqatma material beradi va ulardan ushbu materialni sinchiklab o'rganishlarini so'raydi:

- o'qituvchi tarqatma material mazmuni va bajariladigan vazifa yani tarqatma materialda berilgan harakatlar ketma-ketligini tog'ri belgilash, belgini qog'ozda alohida ajratilgan bo'limga raqamlar bilan qo'yish keraqligini tushuntiradi:

- tarqatma materialda berilgan vazifa dastlab yakka tartibda bajarilishini ta'kidlaydi:

- har bir o'quvchi o'zining shaxsiy fikri asosidagi tarqatma materialdagi "yakka baho" bo'limiga berilgan harakatlarning mantiqiy ketma-ketligini raqamlar bilan belgilab chiqadi:

- o'quvchilarning yakka tartibdagi ishlari tugagach, o'qituvchi ulardan 3 kishidan iborat kichik guruhlar tashkil etishlarini so'raydi. Kichik guruhlar o'quvchilarning xoxishlariga qarab yoki raqamlar bo'yicha tashkil etilishi mumkin:

- kichik guruhlardagi o'quvchilarning har biri o'z qog'ozidagi "yakka baho" bo'limida belgilangan harakatlar ketma ketligi bilan bir-birlarini tanishtiradilar, keyin ular 3 kishida 3 xil bo'lgan ketma-ketlikni birgalashib bhir-birlari bilan tortishib, bahslashib, bir-birlariga ta'sir o'tkazib, o'z fikrlariga ishontirib kelishgan holda, tarqatilgan qog'ozdagi "guruh bahosi" bo'limiga muqobil raqamlarni belgilab chiqadilar:

- barcha kichik guruhlar o'z ishlarini tugatgach, o'qituvchi harakatlar ketma-ketligi bo'yicha to'g'ri javobni beradi, ya'ni o'quvchilardan ularga tarqatilgan qog'ozlardagi "to'g'ri javob" bolimiga u tomonidan aytilgan harakatlar ketma-ketligi raqamlarini yozishni so'raydi:

- o'qituvchi "**to'g'ri javob**" bo'limida berilgan raqamlar bilan "**yakka baho**" hamda "**guruh bahosi**" bo'limidagi raqamlarni solishtirish va kattasidan-kichigini ayirish, ayirmalarni mos holda "**yakka xato**" va "**guruh xatosi**" bo'limlariga yozishlarini so'raydi:

- o'qituvchi yakka va guruh xatolarining umumiy soni bo'yicha tushuncha beradi:

- o'qituvchi mashg'ulotni yakunlab, ba'zi guruhlarining mashg'ulot mobaynidagi ish faoliyatlariga o'z fikrini bildiradi va o'quvchilarning bilimini ilovadagi mezonlar asosida baholaydi yoki mos kelgan to'g'ri javoblar soniga qarab har bir o'quvchi o'z bahosini ilovada ko'rsatilgandek aniqlaydi.

Izoh: misol tariqasida "Mustaqillik yillari" mavzusidagi blis – usulining jadvalini keltirish mumkin (har bir o'qituvchi o'z predmeti bo'yicha o'tayotgan yoki avval o'tgan mavzusi asosida ushbu jadvaldan foydalanib blis- so'rov tuzishi mumkin).

Ayniqsa blis- so'rov interfaol usulidan darsda takrorlash jarayonini amalga oshirganda foydalanilsa maqsadga muvofiq boladi.

1-jadval.

BLIS-SO'ROV "MUSTAQILLIK YILLARI"

Guruh bahosi	Guruh xatosi	To'g'ri javob	Yakka xato	Yakka baho	Yillarning nomlanishi	Yillar
		12			Ijtimoiy himoyalash yili	2007
		1			Amir Temur yili	1996
		16			Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili	2011
		11			Homiylar va shifokorlar yili	2006

		2			Inson manfaatlari yili	1997
		15			Barkamol avlod yili	2010
		10			Sihat salomatlik yili	2005
		3			Oila yili	1998
		9			Mehr-muruvvat yili	2004
		4			Ayollar yili	1999
		14			Qishloq farovonligi va taraqqiyoti yili	2009
		8			Obod mahalla yili	2003
		5			Sog'lom avlod yili	2000
		7			Qariyalarni qadrlash yili	2002
		6			Ona va bola yili	2001
		13			Yoshlar yili	2008
		17			Mustahkam oila yili	2012

7-8 to'g'ri javob – “qoniqarli”

9-10 to'g'ri javob – “yaxshi”

11-12 to'g'ri javob – “a'lo”

Ilmiy tadqiqot davomida Samarqand 1-son Pedagogika kasb-hunar kollejining 2-kurslarida dars jarayonida yuqorida ko'rsatilgan interfaol usullarni qo'llagan holda bir qancha dars ishlanmalarini tuzdik va amaliy darslar davomida guruhlarda sinov tajriba ishlarini olib bordik.

Hozirgi zamon o'qituvchisi ana shu usullardan foydalangan holda dars jarayonlarini tashkillashtirishmoqda va bu o'qituvchilardan katta mahorat talab qilishini oldin ham ta'kidlaganmiz. Umuman o'qituvchlik faoliyatini o'rganish va uni samaradorligini oshirish uzoq yillar davom etib izlanib kelayotgan kasblardan biri bolib buni quyida N.V.Kuzminaning o'qituvchilarning faoliyat doirasini uzoq vaqt kuzatish, eksperimentlarni ilmiy asosda ishlab chiqish, maktab rahbarlarining

o'qituvchilar haqidagi fikrlarini sinchiklab o'rganishi natijasida N.V.Kuzmina pedagogik faoliyat tuzilishi 3 asosiy sohadan: 1) konstruktiv, 2) tashkilotchilik, 3) o'zaro munosabatdan iborat bo'lib, pedagogning ish sohasida o'quvchilar va hamkasblari bilan aloqasidan iboratligini ko'satib berdi.

1. Konstruktiv faoliyat o'quvchilarga beriladigan materialni tanlash hamda bu materialni o'quvchilarning yoshi, individual xususiyatlariga moslab qayta ishlab chiqish va shu asosda dars, suhbat tashkil etish, o'quvchilar shaxsini, bilim darajasini, dunyoqarashini aniqlashdan iboratdir.

2. Tashkilotchilik faoliyati ishni tashkil etish va o'quvchilarning darsda va darsdan tashqari vaqtlarda o'zlarini qanday tutishga o'rgatish, jamoaviy va yakkama-yakka mashg'ulotlarga hamda mehnatlariga rahbarlik qilish, o'z faoliyatini tashkil etishdan iborat.

3. O'qituvchi o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatilgan bo'lsa, uning konstruktiv va tashkilotchilik faoliyati ham muvaffaqiyatli bo'ladi. Bu esa uning pedagogik fazilat va xislatlariga, o'quvchilar psixologiyasini tushunishiga, bolalar bilan o'zaro munosabatiga, ularning yoshi hamda individual xususiyatlarini e'tiborga olishiga, bolalarga ta'sir etishga bog'liq.

Qachonki o'qituvchida quyidagi sifatlar shakllangan bo'lsa va shularni amalga oshira olsa shunda uni mukammal o'qituvchi desa bo'ladi:

O'qituvchining nutqi. Nutq kishilarning bir-birlariga ta'sir etishining qudratli vositasidir. So'z insonni ishontirish, mehnat va g'alabaga chorlash, yomon yo'ldan qaytarishi, quvontirishi yoki jahlini chiqarishi, hatto o'ldirishi mumkin.

O'qituvchi faoliyatida nutq juda muhim funksiyalarni bajaradi. O'quvchilar ana shu nutq orqali bilim, fikr, ishonchga ega bo'ladilar, muayyan his-tuyg'ularga tushunib yetadilar, o'qituvchining so'zlari ta'sirida bolalarda muayyan psixik jarayonlar va psixik holatlar vujudga keladi, shaxsiy xislatlari shakllanadi.

I.P.Pavlov ta'limotiga asoslanib sezgilarimiz, idrokimiz va tasavvurimizni atrofimizdagi tashqi dunyoning birinchi signallari deb yuritimiz; nutq va tafakkur esa, ikkinchi signal sistemasidan iborat. So'z voqeyelikdagi narsa va hodisalarni

idrok qilish hamda tasavvur etishdan iborat bo'lgan bevosita signallarning signalidir.

Insondagi ikkala signal sistemasi birgalikda mavjuddir. So'zning asosida doimo konkret narsa, voqeyelik yoki umumlashgan tushuncha mavjud bo'lmog'i zarur.

Inson tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan nutq ikki funksiyani bajaradi: birinchidan, u boshqa odamlar bilan aloqa vositachisi, bundan tashqari nutq tafakkur shakli hamdir, chunki inson «ichki nutq» deb atalmish so'zlar bilan fikr yuritadi.

O'qituvchi uchun og'zaki va yozma nutqni mukammal ravishda bilish, ayniqsa, og'zaki nutqi ravon bo'lishi uning pedagogik faoliyati samarali kechishida g'oyatda muhimdir. Nutq monolog (hikoya va ma'ruza sifatida) va dialogik (ikki shaxsning o'zaro suhbat) bo'ladi.

O'qituvchining nutqi avvalo yo'naltirilgan yoki undalma nutqdan iborat. O'qituvchi o'quv materialini turli shaklda bayon qilishi mumkin. Masalan, hikoya qilish, ma'ruza va suhbat: lekin sinf bilan doimiy aloqada bo'lishi lozim. Yaxshi o'qituvchilarda ma'ruza usulida o'qitish shakllari ham «ichki dialog» xarakteriga ega bo'ladi, uning o'zi savol berib, o'zi javob qiladi, ba'zan esa o'quvchilar bilan suhbatga o'tib, «haqiqatga» birgalikda erishiladi. O'qituvchining nutqi his-tuyg'u bilan sug'orilgan bo'lsa, juda ta'sirchan bo'ladi.

Pedagogik nutqning sifatlari

Pedagogik nutq quyidagi talablarga javob berishi lozim:

1. Nutqning to'g'riligini ta'minlovchi sifatlari.
2. Tarbiyalash vositasi tufayli uni amalga oshiruvchi sifatlari.

Birinchi guruhdagi pedagogik nutq sifatiga nutqning leksikasi, uslub fonetikasi, talaffuz etilishi, so'zlardagi urg'u kiradi.

O'quvchilar bilan bo'ladigan suhbatlarda bolalarning his-tuyg'usiga ta'sir ko'rsatish, ishonch hosil qilish, isbotlab berish lozim.

Mashhur sud arbobi va pedagog A.F.Konining lektorlarga bergan quyidagi maslahatlari diqqatga sazovordir:

1. Ma'ruzaga puxta tayyorlanish lozim. Leksiya rejasi o'zgaruvchan bo'lishi muhim. Ya'ni uni mazmunga zarar yetkazmaydigan tarzda qisqartirish mumkin bo'lsin.

2. Ovozni o'zgartirish – fikrni bog'lab, uni ko'tarish va pasaytirish kerak.

3. Gapirayotganda qo'l-gavdani harakatga keltirish nutqni jonlantiradi. Biroq me'yordan chiqib ketish yaramaydi.

4. Eshituvchilarning ayrim guruhiga tikilib gapirish ham foydali (ayniqsa kichik auditoriyada).

5. O'qituvchidan sabotli bo'lish va har qanday noqulay sharoitda ham o'zini tuta bilish talab qilinadi.

6. Nutq oddiy, tushunarli bo'lsin.

7. Lirika ham zarur, ammo kamroq bo'lsin.

8. Ma'ruzaning mazmuni auditoriyaga mos bo'lmog'i lozim.

9. Qisqa gapirish kerak.

10. Nutq oxirida xulosa qilish, ya'ni uning muqaddimasi bilan bog'lash lozim [14:120].

Pedagogning ishini ikki asosiy qismga: ta'lim va tarbiyaga bo'lish mumkin. Pedagoglik faoliyatining bu ikkala turi bir-biri bilan chambarchas bog'langan, o'zaro yagona jarayon.

Biroq ular orasida mazmun va metod jihatidan farq mavjud. O'quvchi ikki obyekt: o'quv material hamda o'quvchilar kollektivi bilan ish olib boradi. Shu bilan boshqa kasblardan farq qiladi.

Ta'lim – faoliyatning bir turi bo'lib, uning davomida o'qituvchining rahbarligida o'quvchilar bilim, malaka va tajribani o'zlari egallaydilar, o'zlarining bilim qobiliyatlarini taraqqiy ettiradilar. Demak, ta'lim jarayonida va o'qitishning borishida asosiy harakat qiluvchi shaxs o'quvchilarning o'zi hisoblanadi.

O'qituvchi mehnatining asosiy shakli sifatida dars alohida diqqatga sazovordir. Chunki o'qituvchi butun bir guruhning va har bir o'quvchining individual ishi ustidan rahbarlik qiladi.

Dars o'quvchilar tarkibi doimiy bo'lib, aniq belgilangan vaqt bilan xarakterlanadi. Shuning uchun ham dars vaqtida o'qituvchining o'qitish faoliyati maksimal darajada unumli bo'ladi.

Zamonamiz shu jihatdan ajoyibki, keyingi yillarda turmushning barcha sohalaridagi ijodiy faoliyatda, tashabbus ko'rsatishda va keng mehnatkashlar ommasi faolligining ko'tarilishida katta yuksalish ro'y berdi. Yangi maktab ko'pgina o'qituvchilarni talab qiladi. Yangi tuzum, yangi sharoit o'qituvchidan tashabbuskorlik, ijodkorlikni talab etmoqda.

Pedagoglik odobi va o'qituvchining obro'si. O'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan irodali ta'siri, ular oldiga qo'ygan katta talablari, zarur pedagoglik odobi bilan o'tkazilgandagina ijobiy tarbiyaviy natija beradi.

Pedagoglik odobi nima? Bu – o'qituvchining bolalar bilan to'g'ri munosabatda bo'la bilish, g'amxo'rlik qilish, jonkuyarlik, xushmuomalilik ko'rsatish, o'quvchilar bilan muomala qilishda zarur, ishonchli ohang topish, ular oldiga oqilona talablar qo'yish, bolalard inson qadr-qimmatini hurmatlashdir.

Odob – kishi aqlining namoyon bo'lishidir, ammo u ruhning emosional tomoni bilan ham mustahkam bog'langan.

“Pedagogik odob deb ataladigan narsa borki, tarbiyachi, pedagogika nazariyasini naqadar o'rganmasin, odob bo'lmaganda hech qachon yaxshi tarbiyachi – amaliyotchi bo'la omaydi” [15:46]. Odobdan ahamiyati kam bo'lmagan pedagogik nazokat degan narsa ham bor. Xo'sh, bu pedagogik odob degan narsaning o'zi nima? U o'z boshimizdan kechirgan turli-tuman psixik odoblarning qorong'i va chala ongli xotiralar yig'indisidan iboratdir. Ana shu xotiralar asosida kishi o'z tarixining ruhi bilan boshqa kishining ruhiga ta'sir eta oladigan hamda buning uchun haqiqatan o'zida sinab ko'rgan vositalarni tanlay biladi. Pedagogik nazokat tug'ma narsa emas, balki kishida asta-sekin tarkib

topadigan holatdir. Kishi yashagan va kuzatgan sari bu narsa tarkib topa boradi. Uning o‘z ruhida bergan hodisalar natijasida maqsadli yoki maqsadsiz bir holda tarkib topadi. Bandan o‘z-o‘zidan shu narsa kelib chiqadiki, psixologiya bilan shug‘ullanish yoki pedagogik narsalar o‘qish kishining fikrini o‘z ruhi jarayoni sari yo‘llab, unda pedagogik nazokatning o‘shiga kuchli ta’sir etishi mumkin [15:47].

Pedagog obro‘yi tarbiyachining mahoratiga va ijobiy ma’naviy fazilatlariga tayanadi. Na ko‘ngilchanlik va na shirinso‘zlik pedagogni yetarli obro‘ga ega qila olmaydi, tarbiyalanuvchilarni unga moyil qilmoq uchun ish, bilim, muvaffaqiyatli faoliyat lozim. Chin obro‘yga ega bo‘lgan pedagogning kuchi avvalo uning bolalar jamoasini uyushtirishida va shu orqali bolalarga ta’sir etishida namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchi va yoshlar. Katta yoshdagi o‘quvchilarning o‘shlari odamning ham jismoniy, ham ruhiy taraqqiy etishidagi jiddiy o‘zgarishlar bilan xarakterlanadi. Ularda kattalarga xos xususiyatlar paydo bo‘ladi.

Katta yoshdagi o‘quvchilar o‘z yosh o‘rtoqlaridan keng va barqaror bilishga qiziqishlari bilan farqlanadilar.

Yoshlarning mana shu pedagogik xususiyatlarini pedagog hisobga olmog‘i lozim.

Pedagoglar jamoasida do‘stlik va o‘zaro bir-biriga yordam berish bo‘lmasa, u yerda fitna, janjallar avj oladi, bunday maktabda miliy-ma’naviy tarbiya haqida so‘z bo‘lishi ham mumkin emas, binobarin, bu yerda hatto ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy ishlar ham izdan chiqadi, o‘quvchilarning o‘zlashtirishlari ham pasayadi. Yaxshi tartibli jamoada o‘qituvchilar doim bir-birlariga yordam beradilar, ayrim tarbiyachilarning yo‘l qo‘ygan xato va nuqsonlarini ko‘pchilik bo‘lib tuzatadilar.

Talabalar jamoasini shakllantirish. Talabalar jamoasini vujudga keltirish pedagogika oliy o‘quv yurtlarida olib boriladigan barcha ta’lim-tarbiyaviy ishlarning zarur sharti hisoblanadi. Chunki jamoa shaxsga xushaxloqlikni o‘rgatish uchun mashq o‘tkazish vositasidir. Talaba shaxsining ma’naviy, kasbiy va axloqiy jihatlaridan barkamol bo‘lib o‘shishi, avvalo talabalar jamoasining shakllanganlik

darajasiga bog'liq. Talabalarning ahil, inoq jamoasini shakllantirish axloqiy tarbiyaning samaradorligini oshiruvchi asosiy shartlardan biridir.

Jamoa deganda biror umumiy maqsad yo'lida birlashgan kishilar guruhi, biror vazifani bajarish uchun jamiyat tomonidan maxsus ravishda tashkil etilgan odamlar birlashmasi tushuniladi. Pedagogika fanida jamoaning tarbiyaviy roli va ahamiyati yetarlicha yoritilgan. Odatda, u umumiy va boshlang'ich jamoalarga bo'linadi.

A'zolari bir-biri bilan doimiy, bevosita aloqada bo'lgan jamoa boshlang'ich jamoa deb ataladi. Boshlang'ich jamoada yigit va qizlar birgalikda bajariladigan faoliyat jarayonida, yagona maqsad uchun bevosita kurashib bir-birlari bilan ijtimoiy aloqada bo'ladilar. Boshlang'ich jamoa eng yaqin «ijtimoiy muhitdir». Oliy maktabda o'quv guruhi, ilmiy to'garak kabilar boshlang'ich jamoa hisoblanadi. Talaba bunday jamoada o'quv ishlari, ilmiy ishlar, ijtimoiy-foydali mehnat, jamoat topshiriqlari kabi vazifalarni bevosita bajaradi.

Boshlang'ich jamoada ijtimoiy xulq tajribasi hosil qilinadi, odatlar shakllanadi. Talabalar guruhda har kuni o'zaro aloqada, munosabatda bo'ladilar: har bir talabaning yaxshi yoki yomon barcha qiliqlari o'rtoqlarining ko'z oldida sodir bo'ladi va beixtiyor ravishda ularning xatti-harakatlari, xulqi to'g'risida o'ylashni, bu xatti-harakatlarga nisbatan ma'lum munosabatda bo'lishni, unga baho berishni talab etadi.

Fakultet va oliy o'quv yurti jamoasi bir qadar umumiy birlashma, umumiy jamoa hisoblanadi. Lekin u boshlang'ich jamoalarning mexanik ravishda birlashuvidan iborat emas, balki undan sifat jihatidan farq qiladi. Fakultet va oliy o'quv yurti jamoasida talabalarning aloqa va bog'lanishlari birmuncha murakkablashgandir. Agar boshlang'ich jamoada kishilar bevosita bog'lanish asosida va birgalikda bajariladigan faoliyat jarayonida aloqada bo'lsalar, birlashsalar, umumiy jamoada esa avvalo tashkilotning ish tartibi tamoyillari, qurilishi tufayli umumiy maqsadni, umumiy vazifalarni bajarish uchun birlashadilar. Fakultet va o'quv yurti jamoasida talabalar bir-birlari bilan bevosita

bogʻlanadilar va bu bogʻlanishlar oliy oʻquv yurti faoliyatining tashkiliy va maʼnaviy yoʻnalishiga bogʻliq boʻladi.

Oʻquv guruhi oliy oʻquv yurti jamoasining bir qismi hisoblanadi. Uning samarali ishlashi fakultet va oʻquv yurti jamoasida tashkiliy va tarbiyaviy ishlarning qay darajada uyushtirilganligiga bogʻliq. Agar oliy oʻquv yurtining faoliyatida yagona tartib-intizom, yagona reja mavjud boʻlmasa, ayrim guruhning faoliyati, samarali boʻlishi juda qiyin. Umumiy jamoada ishlarning tashkil etilishi boshlangʻich jamoaning faoliyatini belgilaydi, unga taʼsir etadi, chunki boshlangʻich jamoaning faoliyati umumiy jamoa faoliyatining aniq ifodasidir.

Umumiy jamoaning barcha yutuqlari, shuningdek, uning faoliyatidagi baʼzi yetishmovchiliklar, kamchiliklar boshlangʻich jamoa va uning ayrim aʼzolari faoliyatiga taʼsir oʻtkazadi. Shuning uchun ham boshlangʻich jamoadagi tarbiyaviy ishlarni yaxshilash uchun jiddiy kirishish umumiy jamoa yaratish sohasidagi ishlarni kuchaytirishni talab etadi.

Oliy oʻquv yurtidagi barcha ishlarni izchil, rejali, umumiy maqsadga yoʻnaltirilgan boʻlishi boshlangʻich jamoa faoliyatining sermazmun boʻlishi uchun zaruriy shartdir. Guruhning ish rejasi har qancha mukammal oʻylab tuzilgan boʻlsa ham, uni amalga oshirish uchun har qancha faol kirishilsa ham baribir, agar oliy oʻquv yurtidagi ishlarning umumiy rejasiga asoslanmagan boʻlsa, kutilgan natijaga erishib boʻlmaydi.

Kishilarni rasmiy ravishda maʼlum guruhga toʻplash bilan jamoa hosil boʻlmaydi. Guruhga toʻplangan odamlar jamoa tashkil qilishi uchun ular oʻrtasida oʻzaro mustahkam maʼnaviy-ruhiy aloqalar barqaror boʻlishi lozim. Boshqacha aytganda obyektiv ijtimoiy faoliyat va demokratik boshqarish asosida guruhdagi kishilarni bir-biriga mahkam birlashtiradigan, ularning xatti-harakatlarini tartibga soladigan va maʼnaviy oʻsishiga, rivojlanishiga imkon beradigan holat vujudga kelgan takdirdagina guruh, jamoa yaratish mumkin.

Shunday qilib, pedagogika va psixologiya fanlari jamoada quyidagi belgilar mavjud boʻlishi lozim deb hisoblaydi.

Jamoa a'zolari, avvalo umumiy maqsad yo'lida birlashadilar. Jamoaning yagona maqsadi va umumiy intilishlari shaxsiy va ijtimoiy qimmatga ega bo'ladi.

Jamoa uchun muhim belgilardan biri — birgalikda faoliyat ko'rsatishdir. Bunday faoliyat shaxsiy va ijtimoiy-foydali maqsadni ko'zda tutadi. Ana shu faoliyat jarayonida jamoa a'zolarida mas'uliyat, talabchanlik, prinsipiiallik, bir-biriga do'stona ko'maklashish, o'zaro bir-biriga itoat etish munosabatlari vujudga keladi. Bu munosabatlar jamoada shaxsning shakllanishi uchun asosiy vosita hisoblanadi.

Jamoaning shakllanishi muammosiga doir ilmiy tadqiqot o'tkazgan kishilar unda ikki xil munosabatlar mavjudligini ta'kidlaydilar.

Birinchisi — rasmiy, ya'ni starosta bilan talaba o'rtasidagi munosabatlar va ikkinchisi — norasmiy (shaxsiy): yoqtirish, yoqtirmaslik, samimiyat va adovat kabi munosabatlar. Bu xil munosabatlarning ikkalasi ham bir guruhda va shu guruh a'zolari o'rtasida mavjud bo'ladi. Bu munosabatlar bir-biriga ta'sir o'tkazadi. Xizmat vazifasiga oid munosabatlar jamoada yetakchi munosabat hisoblanadi. Lekin jamoa a'zolari o'rtasidagi norasmiy (shaxsiy) munosabatlarni ham e'tiborga olmaslik mumkin emas. Shakllangan jamoada bu munosabatlar bir-biriga mos, uyg'un bo'ladi. Rasmiy va norasmiy munosabatlarning birligi jamoada qulay ma'naviy-ruhiy va axloqiy muhitni vujudga keltiradi, bunday muhit jamoaning va jamoa a'zolarining ma'naviy-axloqiy o'sishiga imkon beradi.

Faollar bo'lmasa tashkilot ham, jamoa ham bo'lmaydi. Pedagogikada jamoa bu tirik vujuddir va har qanday tirik tana singari jamoa ham o'z a'zolariga ega bo'ladi. Agar a'zolar ishlamas tashkilot xarob bo'ladi. Ishchan, obro'li, barcha a'zolari o'z ketidan ergashtira oladigan kishining (fasl) mavjudligi jamoaning shakllanganligini ko'rsatuvchi muhim belgidir.

Boshlang'ich jamoa bilan umumiy jamoa o'rtasida aloqa va bog'lanishlar mavjud bo'lishi zarur.

Jamoada hamma teng bo'lishi kerak: saylab qo'yilgan rahbar ham, ularga itoat etuvchilar ham teng huquqqa ega bo'lishlari lozim. Jamoaning rahbarlari

alohida imtiyozlarga ega bo'lishi mumkin emas, chunki u notekis munosabat, nosog'lom, yomon kayfiyatni hosil qiladi, jamoa a'zolari o'rtasidagi munosabatlar murakkablashadi va nihoyat jamoaning tarbiyaviy ta'siri kamayadi.

Bu belgilar yetuk boshlang'ich jamoa uchun xarakterlidir. Jamoa o'z-o'zidan vujudga kelmaydi, balki murabbiylarning muntazam tarbiyaviy ishlari natijasida shakllanadi.

Boshlang'ich jamoa tuzish guruh talabalarini o'rganishdan boshlanadi. Bu davrda murabbiy guruhning o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar to'playdi, guruxda boshlang'ich jamoaga xos qanday belgilar mavjudligini, guruh a'zolarining shaxsiy nuqtai nazarlarini va guruhdagi munosabatlarda ularning o'rnini, har bir talabani boshqalarga qanday ta'sir o'tkaza olishini aniqlaydi. Olingan ma'lumotlar asosida guruh, jamoa yaratish uchun tarbiyaviy ishlarning rejasini tuzib chiqadi. Bu vazifalarni bajarish uchun har bir talabani shaxsiy xususiyatlarini, shuningdek, talabalar guruhini o'rganish talab etiladi. Guruh murabbiysi har bir talabani shaxsiy xususiyatlarini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berishi zarur: talaba to'g'risida umumiy ma'lumot; talabani mayl va qiziqishlari, intilishi; talabani o'qish faoliyati; talabani irodasi va xarakteriga xos xususiyatlar; talabani o'qishdan tashqari vaqtini qanday o'tkazishi va nimalar bilan shug'ullanishi.

Talabalar guruhini o'rganishda quyidagilarga e'tibor berish talab etiladi: guruh to'g'risida umumiy ma'lumotlar; guruhning ma'naviy-ruhiy tuzilishi; talabalarda tashkilotchilik qobiliyatining rivojlanganlik darajasi; guruh jamotchilik fikrining o'sganlik darajasi; guruhning boshqa jamoalar bilan aloqasi.

Yuqoridagi masalalarni o'rganish asosida murabbiy talabalar va guruh to'g'risida mukammal ma'lumot to'play oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, guruh yoki talabani har tomonlama o'rganish ancha murakkab ish. Guruh murabbiysi ta'lim-tarbiya jarayonida vujudga kelgan ayrim masalalarni, muammolarni mukammalroq o'rganishi mumkin. Bunday muammo va masalalar turlicha bo'ladi. Masalan: ayrim hollarda guruh talabalaridan ko'pchiligi yoki bir nechasi o'qishga,

pedagogik kasbni egallashga e'tiborsizlik bilan qaraydi. Ba'zan talabalar o'rtasida, shuningdek, guruh talabalari bilan faollar o'rtasida, talabalar bilan o'qituvchi o'rtasida nizolar chiqishi, guruh talabalari orasida ayrim axloqsizlik hollari uchrab qolishi mumkin. Bunday paytlarda ana shu muammoni vujudga keltirgan sabablarni chuqur o'rganish zarur. Oliy maktablar tajribasida ahil talabalar guruhi ko'proq uchrab turadi. Bunday guruhlardagi talabalarning ko'pchiligida jamoaviylik, o'rtoqlik, do'stlik tuyg'ulari ancha rivojlangan bo'ladi. Lekin ana shunday guruhlarda ham boshlang'ich jamoa o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Bunday guruhlarga ham alohida e'tibor berish, jamoani mustahkamlash talab etiladi. Murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari bunday guruhlarning talabalari oldiga murakkabroq vazifalarni qo'yishlari lozim.

Talabalar jamoasi sohasida maxsus tadqiqot o'tkazgan kishilar boshlang'ich jamoani tuzish va mustahkamlash uch bosqichdan iborat deb ko'rsatadilar. Birinchi bosqich — yangi qabul qilingan talabalarning oliy o'quv yurtining an'analari, ichki tartib-qoida va talablarini o'zlashtirib olishlaridan boshlanadi. Oliy maktab hayotining butun tajribasi, ichki tartib-qoidalari, talabalarga professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlarining rahbarlari orqali o'tadi.

Bu davrda professor-o'qituvchilar va jamoat tashkilotlari rahbarlari yangi qabul qilingan talabalarga oliy o'quv yurtining maqsadi va vazifalarini, shuningdek, talabalarga nisbatan qo'yiladigan talablarni tushuntirishlari lozim. Ular oliy maktabda o'qish malakasi va ko'nikmalarini o'zlashtirib olishda, o'qishdan tashqari bo'sh vaqtni oqilona uyushtirishda talabalarga ko'maklashadilar. Guruhning har bir a'zosidagi xislatlarni aniqlaydilar. Ma'ruzalar, seminar va amaliy mashg'ulotlarga birga tayyorlanishga o'rgatadilar. Murabbiy talabalar orasidan faollar tanlab, jamoani tashkiliy jihatdan rasmiylashtirishda, faollarni sekin-asta obro'li va mohir tashkilotchilar bo'lib yetishishlarida ko'maklashadi.

Talabalarning oliy maktabda olgan dastlabki taassurotlari va orttirgan tajribasi ular ongiga kuchli ta'sir etadi, oliy maktabda ta'lim olish davridagi butun

faoliyatida ma'lum iz qoldiradi. Shuning uchun ham boshlang'ich jamoa tuzishning dastlabki davri murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlaridan yuksak mas'uliyat va jiddiy ishlashni talab etadi. Ular bu davrda har bir talabani, uning ehtiyojlari, qiziqishi va qobiliyatlarini sinchiklab o'rganadilar. Oliy maktabda aqliy mehnatni uyushtirishning ilmiy asoslarini — ma'ruza tinglash va yozib olish, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorlanish, kitob ustida mustaqil ishlash, kun tartibi va gigiyena qoidalariga amal qilish kabilarni o'rgatadilar. Shu bilan birga murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari talabalarning moddiy-maishiy turmushi va dam olishini uyushtirishga katta e'tibor beradilar, har bir talabani uning qobiliyatiga mos keladigan jamoat topshirikdarini bajarishga jalb etadilar.

Birinchi bosqichning oxirlariga kelib talabalar oliy o'quv yurtida ta'lim olishning yo'l-yo'riqlarini oliy maktabning kun tartibi, an'ana va talablarini o'zlashtirib oladilar. Guruhda ishchan faollar paydo bo'ladi, o'quv ishlari sohasidagi topshiriqlarni bema'lol bajara olishga, zavqli yashash va mehnat qilishga talabalarda ishonch hosil bo'ladi. Bu davrda boshlang'ich jamoa talabalarning o'qishi, mehnati va moddiy-maishiy turmushini uyushtirishga doir kundalik masalalarni mustaqil ravishda hal qila oladi. Shunday qilib, boshlang'ich jamoa tuzishning dastlabki davri talabalarga oliy maktab hayotining oddiy talablarini o'rgatishni, jamoani tashkilot sifatida rasmiylashtirishni, jamoaviy turmush sohasida dastlabki tajriba orttirishni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi bosqichda faollarni tarbiyalash va o'stirish sohasidagi ishlar davom ettiriladi. O'qituvchi muammosiga doir masalalar va pedagogik mahoratni egallash yo'llari keng muhokama qilinadi. Murabbiy va jamoat tashkilotlarining rahbarlari barcha talabalarni tashkilotchilik ishlariga jalb etish, berilgan topshiriqlarni ijodiy bajarish, guruhda vujudga kelgan tartib-qoidalarini har bir talabaning barqaror xulqiga aylantirish, an'analar hosil qilish kabi masalalarga alohida e'tibor beradi. Bu bosqichda kurator va jamoat tashkilotlari pedagogik kasb bilan bog'liq bo'lgan masalalarni chuqur anglab olishda talaba-tarbiyachini shakllantirishga qaratilgan

amaliy ishlarni bajarishda, guruhda haqiqiy jamoaviylik munosabatlarini qaror toptirishda talabalarga ko‘maklashadilar.

Uchinchi bosqichda guruhda ishchan va obro‘li faollar mavjud bo‘ladi, ular bilan talabalarning birligi, talabalar orasida do‘stona va talabchanlik munosabatlari qaror topadi. Har bir talaba umumiy ishga katta qiziqish bilan qaraydi, birlashib harakat qilishga tayyor turadi, umumiy jamoadagi ishlardan atroflicha xabardor bo‘ladi. Bu esa jamoaga guruh va uning har bir a‘zosi taalluqli barcha masalalarni mustaqil ravishda, o‘qituvchilarning yordamisiz hal etish imkonini beradi.

Boshlang‘ich jamoaning vujudga kelishi va ahilligi qo‘p jihatdan murabbiyning ko‘zlagan maqsadi va tutgan yo‘liga bog‘liq. Guruh rahbari ishchan, serg‘ayrat, talabalarga ta‘sir o‘tkaza oladigan, ularning qalbiga yo‘l topa biladigan, guruhda vujudga kelgan ayrim murakkab vaziyatlarni ham yumshata oladigan, hazil-mutoyibani ham biladigan kishi bo‘lishi lozim. Tund, pismiqli rahbar guruhda boshlang‘ich jamoa tuza olmaydi.

Rahbarlik uslubi demokratik asosda bo‘lsa guruhda do‘stlik, hamkorlik, xayrixohlik munosabatlari tezroq qaror topadi. Shuning uchun ham murabbiy prinsippiallik va talabchanlikni talaba shaxsini hurmat qilish bilan qo‘shib olib bora bilishi, guruhdagi har bir talabaga nisbatan adolatli va g‘amxo‘r bo‘lishi lozim.

Murabbiyning ishchanlik sifatleri boshlang‘ich jamoa yaratishda muhim ahamiyatga ega. Murabbiy o‘ziga topshirilgan ishni yaxshi bilish bilan birga jamoaning har bir a‘zosi uning qobiliyatiga yarasha vazifa topshira olishi, boshlangan ishni oxirigacha yetkazadigan bo‘lishi ham kerak. Ana shu sifatlarga ega bo‘lgan rahbar talabalar orasida obro‘ qozonadi, guruhda ahil jamoani yarata oladi. Murabbiy va guruh faollari ana shu fazilatlariga ega bo‘lishlari zarur.

Guruxda ahil jamoa tuzish uchun murabbiy har bir talabani, uning jamoadagi o‘rni va shaxsiy nuqtai nazarini kuzatib borishi, faollar bilan hamkorlikda har bir talabani jamoaga munosabatini, shuningdek, talabalar

o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solib turishi lozim. Bu ish, ayniqsa, quyi kurslarda boshlang'ich jamoa tuzish davrida juda zarur.

Talabalarni axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun qulay vaziyatni vujudga keltirishda Guruh sardori, yoshlar tashkilotchisi va boshqa faollarning roli katta. Ayniqsa, xushmuomala, ulfat, dilkash kishi bo'lishi, guruh talabalari o'rtasidagi munosabatlarning eng nozik tomonlarini ham sezishi, payqashi kerak. Guruhdagi ishlarning borishi unga ko'p jihatdan bog'liq. Talabalar orasida bir amallab «qoniqarli» baho olish kayfiyati hukmronlik qiladimi yoki butun o'quv yili davomida jamoaning barcha a'zolari kuch-g'ayrat sarflab, bilim va pedagogik kasb sirlarini o'rganadilarmi, bu starostaga, guruh faollariga juda bog'liq. Shuning uchun ham faollar prinsipial, qat'iy e'tiqodli kishilar bo'lishi lozim. Ular konfliktlardan qo'rqmasligi, g'ayratli, ruhi baland, tashabbuskor, boshqalarni o'z ketidan ergashtira oladigan bo'lishi zarur.

Boshlang'ich jamoani shakllantirishning muhim vositalaridan biri guruh talabalarini aktiv faoliyatga jalb etishdir. Istiqbolga intilish, faoliyat bo'lmasa jamoa ham bo'lmaydi. Jamoa birgalikda bajariladigan amaliy faoliyat natijasida yaratiladi. Jamoaviy faoliyatda kishilarni his-tuyg'ular, kechinmalar yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Birgalikda boshdan kechirilgan taassurotlar yoshlarni ruhiy yaqinlashtiradi. Bu taassurotlar qanchalik xilma-xil va chuqur bo'lsa, ruhiy yaqinlik shunchalik kuchli bo'ladi. Boshqalarning ahvolini tushuna bilish sekin-asta yaqin o'rtoqlaridan umuman keng doiradagi boshqa kishilarga ham ko'chadi.

Birgalikda bajariladigan faoliyatda g'amxo'rlik, sezgirlik, rahmdillik kabi yuksak axloqiy hislar, bir-biriga kuchli qiziqish vujudga keladi, kishilar bir-birini tushunadigan bo'ladi, insoniy munosabatlarni ajrata olishni o'rganadi. Boshqacha so'z bilan aytganda, birgalikda bajarilgan faoliyat natijasida jamoaning shakllanishiga ma'naviy asos bo'ladigan ruhiy sifatlar vujudga keladi. Ruhshunos olimlar ma'naviy-ruhiy birlikni jamoa a'zolarini birlashtiradigan yetakchi omil deb hisoblaydilar.

Shuningdek, jamoaviy faoliyat jarayonida o‘zaro bir-biriga talabchanlik, mas’uliyat, o‘zaro yordam ko‘rsatish munosabatlari paydo bo‘ladi, hamkorlik natijasida kishida o‘zining yoki o‘rtoklarining xatti-harakatlaridan qanoat hosil qilish yoki qoniqmaslik tuyg‘usi, o‘z xulqiga va o‘rtog‘ining xulqiga ma’lum bir munosabat vujudga keladi. «Men ishlayapman, sen esa ishlamayapsan. Nega?», «Sen topshiriqni o‘z kuching va qobiliyating imkon beradigan darajada bajarmayapsan. Nega?» Agar o‘rtog‘i orqada qolayotgan bo‘lsa, tevarak-atrofdagilar uning ham, o‘zlarining ham bu ishdan, qo‘lga kiritgan umumiy yutuqdan manfaatdor ekanliklarini bilib, unga astoydil yordam beradilar. Shu tariqa ish-harakat paytida umumiy talabchanlik, jamoatchilik fikri va o‘zaro yordam berish vazifasi vujudga keldi.

Talabalar hayotida o‘quv faoliyati yetakchilik rolini o‘ynaydi. O‘quv faoliyati boshlang‘ich jamoa tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Pedagogika oliy o‘quv yurtining talabalari uchun asosiy vazifa yaxshi o‘qish, o‘qituvchilik kasbini mukammal egallashdan iborat.

Demak, talabalarni, avvalo guruhda o‘quv ishini to‘g‘ri uyushtirish «a’lo» va «yaxshi» o‘qish, yuqori reytingni egallash uchun safarbar etish zarur. Shunga erishish lozimki, guruhning har bir a’zosi ma’ruzalar, seminar va amaliy mashg‘ulotlarda, o‘quv ishining boshqa turlarida faol qatnashsin. Guruxda va fakultetda o‘quv intizomini mustahkamlash uchun har bir talaba kurashishi, barcha talabalarning chuqur bilim olishi, pedagoglik kasbini egallashi uchun zarur bo‘lgan barcha sharoitlar yaratilishi lozim.

2.3. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga doir tajriba-sinov ishlari va uning tahlili

Ilmiy-pedagogik adabiyotlar ko‘zdan kechirilganda muayyan muammo yuzasidan tajriba-sinov ishlarini olib borish jarayonida asosiy e‘tibor tadqiq etilayotgan muammoning amaliy jihatlariga qaratilishi ta‘kidlab o‘tilganining guvohi bo‘lamiz. Pedagogik jarayon ta‘lim beruvchi (o‘qituvchi-pedagog) hamda ta‘lim oluvchi (o‘quvchi-talabalar) orasida ro‘y beruvchi va o‘zida didaktik xususiyatlarni namoyon etuvchi amaliy faoliyat mazmunini yorituvchi jarayondir. Nazariy-pedagogik g‘oyalar bevosita amaliyotda ta‘lim va tarbiyaviy jarayon mohiyatini o‘rganish, tahlil etish hamda umumlashtirishi asosida qaror topadi. Shuning uchun ham pedagogik izlanish jarayonida tajriba sinov ishlarini tashkil etish shu jarayonning asosiy o‘zagi sifatida namoyon bo‘ladi.

Kolleji talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida 2011-2012 yillar davomida Samarqand 1-son Pedagogika kasb-hunar kollejida tajriba-sinov ishlari o‘tkazildi. Tajriba-sinov ishlarini o‘tkazish maqsadida tajriba guruhlardagi talabalar soni 60 ta, nazoratdagisi esa 61 ta qilib olindi hamda tajriba o‘tkaziladigan guruhlarda o‘quv materiallarining didaktik ishlanmalari tayyorlandi. Bu o‘quv materiallari bilan tajriba-sinov ishlarini amalga oshiradigan talabalar tayyorgarlikdan o‘tkazildi.

Tajriba sinov ishlarini matematik statistik tahlil qilganimizda quyidagi natijalarga erishdik:

Ushbu savolnoma tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida talabalar e‘tiboriga havola etildi. Tajriba-sinov ishlari boshi va yakunida tajriba hamda nazorat guruhi talabalari tomonidan qayd etilgan ko‘rsatkichlar taqqoslandi hamda matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi. Mazkur holat biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotda sinovdan o‘tkazilgan uslubiyatning samaradorligini tasdiqladi.

Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning pedagogik jihatlarini matematik-statistik tahlil qilishda tashkilotchilik tuchunchalarini shakllantirish bo'yicha mashg'ulot tashkil etildi.

Talabalar tomonidan auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlar jarayonida tashkilotchilik mahorati mazmunining to'liq o'rganilish darajasini aniqlash maqsadida ushbu g'oya mohiyatini o'zida batafsil mujassam etgan anketa savolnomasini ishlab chiqdik (**1-ilovaga qarang**) hamda ko'p balli tizim asosida baholash metodidan foydalandik. Har bir guruh talabalariga 12 savoldan iborat anketa savolnomasi berildi. Bunda shartli ravishda olingan to'g'ri javoblarga quyidagicha baho mezonini belgiladik:

0 ta savolga-0 ball;

0-5 tagacha savolga-3 ball;

6-9 tagacha savolga-6 ball;

10-12 tagacha savolga-10 ball.

Talabalariga taqdim qilingan anketa savolnomani umumlashtirish natijasida Samarqand 1-son Pedagogika kolleji talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish darajasi tajriba-sinov ishlarining dastlabki bosqichida quyidagicha holatda bo'lganligini aniqladik.

2-kurs talabalarda ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish darajasini aniqlash uchun 12 ta savoldan iborat anketa savolnomasitanlab olindi. Bu savollarga nazorat guruhlaridagi 61 (100%) o'quvchidan 10 tasi (16,3%) 10 ball, 20 tasi (32,7%) 6 ball, 23 tasi (37,7%) 3 ball olgan. Bitta ham savolga to'g'ri javob bera olmagan o'quvchilar soni 8 tani (13,11%) tashkil etgan. Tajriba guruhlarida esa 60 (100%) o'quvchidan 9 tasi (15%) 10 ball, 19 tasi (31,6%) 6 ball, 24 tasi (39,3%) 3 ball va 8 tasi (13,3%) 0 ball olgan.

Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning tajriba-sinov ishlari boshidagi darajasi

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	61	10	20	23	8
Tajriba	60	9	19	24	8

Yuqorida keltirilgan tajriba-sinov natijalaridan shunday xulosa kelib chiqadiki, Samarqand 1-son Pedagogika kolleji talabalarining 121 nafari tashkilotchilik mahoratiga oid bilimdonlik darajasini aniqlash maqsadida ularga topshiriqlar berildi. Shundan nazorat guruhlardagi 61 ta (100%) o'quvchidan: 10 tadan 12 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar soni 10 ta (16,3%), 6 tadan 9 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 20 ta (32,7%), 5 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 23 ta (37,7%), bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmaganlar 8 nafarni (13,11%) tashkil qilgan.

Tajriba guruhlardagi 60 ta (100%) o'quvchidan: 10 tadan 12 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 9 ta (15%), 6 tadan 9 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 19 ta (31,6%), 5 tagacha topshiriqqa to'g'ri javob berganlar 24 ta (39,3%), bitta ham topshiriqqa to'g'ri javob bermaganlar 8 tani (13,3%) tashkil qilgan.

Tajriba-sinov yakunida tajriba guruhlaridagi talabalarning ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratining shakllanganlik darajasi nazorat guruhidagi talabalarnikidan ancha yuqoriligi kuzatildi.

2-kurs talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasini tajriba-sinov yakunida aniqlash maqsadida, ularga 12 ta saoldan iborat anketa so'rovnomasi taqdim etildi. Bu savollarga nazorat guruhlaridagi 61 ta (100%) talabaidan 10 ball olganlar 11 ta (18%), 6 ball olganlar 22 ta (36,06%), 3 ball olganlar 22 ta (36,06%), 0 ball olganlar 6 tani (9,8%) tashkil etdi. Tajriba guruhlarda esa 60 talabadan (100%) 20

tasi (33,3%) 10 ball, 28 tasi (46,6%) 6 ball, 10 tasi (16,6%) 3 ball, 3 tasi (5%) 0 ball oldi.

2-jadval

Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishning tajriba-sinov ishlari yakunidagi darajasi

Guruhlar	O'quvchilar soni	JAVOBLAR			
		10 ball	6 ball	3 ball	0 ball
Nazorat	61	11	22	22	6
Tajriba	60	20	28	10	3

Yuqoridagi natijalarni umumlashtirib quyidagi xulosaga keldik. Tajriba-sinov yakunida berilgan topshiriqlarga 61 nafar (100%) nazorat guruhidagi o'quvchilardan 11 tasi (18%) 10 tadan 12 tagacha topshiriqni, 22 tasi (36,06%) 6 tadan 9 tagacha topshiriqni, 22 tasi (36,06%) 5 tagacha topshiriqni bajardilar, 6 tasi (9,8%) esa bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmadi.

Tajriba guruhidagi 60 ta (100%) o'quvchidan esa 10 tadan 12 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 20 tani (33,3,6%), 6 tadan 9 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar soni 28 tani (46,6%), 5 tagacha topshiriqni to'g'ri bajarganlar 10 tani (16,6%) va bitta ham topshiriqni to'g'ri bajara olmaganlar 3 ta (5%) o'quvchini tashkil qildi.

3-jadval

Tajriba-sinov ishlarining boshi va yakunida kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga oid bilimdonlik darajasi ko'rsatkichlari

Guruhlar	Talabalar soni	J A V O B L A R							
		10 ball		6 ball		3 ball		0 ball	
		Taj. bosh.	Taj. yakun	Taj. bosh.	Taj. yakun.	Taj. bosh.	Taj. yakun	Taj. bosh.	Taj. yakun
Nazorat	61	10	11	20	22	23	22	8	6
Tajriba	60	9	20	19	28	24	10	8	3

Yuqoridagi jadvallarda ko'rsatib o'tilgan sonli ma'lumotlarni statistik tahlil qilamiz. Buning uchun biz x_i lar orqali nazorat hamda y_i lar orqali esa tajriba

guruhlariga mos o'zlashtirish darajalarini belgilaymiz. Bu kattaliklar har biri 0; 3; 6; 10 qiymatlarni qabul qiladi. Bunday ballarga har ikki guruhlardagi o'quvchilarning sonlarini mos ravishda n_i va m_i lar orqali belgilaymiz. Natijada yuqorida 1-jadvaldagi tajriba-sinov ishlari o'tkazilishidan oldin nazorat va tajriba guruhlaridagi ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratining shakllanganlik darajalari bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari mos ravishda quyidagicha aniqlandi:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{61} (0 \cdot 8 + 3 \cdot 23 + 6 \cdot 20 + 10 \cdot 10) = \\ &= \frac{1}{61} (69 + 120 + 100) = \frac{289}{61} = 4,73 \approx 4,7.\end{aligned}$$

$$\begin{aligned}\bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{60} (0 \cdot 8 + 3 \cdot 24 + 6 \cdot 19 + 10 \cdot 9) = \\ &= \frac{1}{60} (72 + 114 + 90) = \frac{276}{60} = 4,6 \approx 4,6.\end{aligned}$$

Demak, tajriba-sinov o'tkazilishidan oldin har ikki guruhda o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlari deyarli farqlanmas ekan.

Biz olib borilgan tajriba-sinov ishlarining samarador ekanligini ko'rsatish maqsadida 2-jadvaldan sonli ma'lumotlar bo'yicha matematik statistika usullari yordamida chuqur tahlil olib boramiz. Yuqoridagi belgilarni saqlagan holda biz 2-jadvalni 2 ta statistik tanlanma shaklida quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\begin{cases} X_i : 0;3;6;10. \\ n_i : 6;22;22;11. \end{cases} n = 61.$$

$$\begin{cases} Y_i : 0;3;6;10. \\ m_i : 3;10;28;20. \end{cases} m = 60.$$

Tajriba-sinov ishlari yakunida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish darajasi bo'yicha o'rtacha o'zlashtirish ko'rsatkichlarini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}\bar{X} &= \frac{1}{n} \sum_{i=1}^4 x_i n_i = \frac{1}{61} (0 \cdot 6 + 3 \cdot 22 + 6 \cdot 22 + 10 \cdot 11) = \\ &= \frac{1}{61} (66 + 132 + 110) = \frac{308}{61} = 5,04 \approx 5,0\end{aligned}$$

$$\bar{X} \% = \frac{5,0}{10} \cdot 100\% = 50\%.$$

$$\begin{aligned}\bar{Y} &= \frac{1}{m} \sum_{i=1}^4 y_i m_i = \frac{1}{60} (0 \cdot 3 + 3 \cdot 10 + 6 \cdot 28 + 10 \cdot 20) = \\ &= \frac{1}{60} (30 + 168 + 200) = \frac{398}{60} = 6,63 \approx 6,6\end{aligned}$$

$$\bar{Y} \% = \frac{6,6}{10} \cdot 100\% = 66\%.$$

Absolyut farq:

$$(\bar{Y} - \bar{X})\% = 66 - 50 = 16\%.$$

Nisbiy farq:

$$\frac{\bar{Y} \%}{\bar{X} \%} = \frac{66}{50} = 1,32$$

Demak, tajriba-sinov ishlari yakunida tajriba guruhlaridagi o'rtacha o'zlashtirish nazorat guruhlaridagidan 16% yuqori bo'lib, u 1,3 barobar katta ekan. Ushbu ko'rsatkich tajriba-sinov ishlari boshidagidan $(6,6/4,6)=1,4$ barobarga oshganligini ko'rish mumkin.

XULOSALAR

O‘zbekiston Respublikasining Konstitusiyasida belgilanganidek, jamiyatimizning istiqboli, rivojlanish hamda taraqqiyot yo‘li huquqiy, demokratik, insonparvar fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir. Bunday jamiyatni barpo etish esa kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Yuksak tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lgan kadrlar jamiyat uchun ijtimoiy buyurtma hisoblanadi. Shunday ekan bo‘lajak o‘qituvchilarda tashkilotchilik mahoratini shakllantirish, milliy mafkurani shakllantirish bilan birgalikda olib borilishi lozim. Bu singari g‘oyalar pedagogik-pedagogik sikldagi barcha fanlar: umumiy pedagogika, umumiy psixologiya, pedagogik mahorat, yangi pedagogik texnologiyalar kabi fanlarni o‘rganish, auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘tkaziladigan barcha tarbiyaviy tadbirlarni o‘tkazish jarayonida shakllantirib boriladi. Bundan esa, barcha pedagogik-pedagogik sikl fanlarning talabalar tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda maxsus tarbiyaviy ta’sir omili ekanligi haqida bir xulosaga kelish uchun izn beradi.

Bu o‘rinda pedagogik fanlar bloki hamda ularni mustaqil o‘zlashtirishda auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarning shuningdek interfaol usullarning muhim imkoniyatlaridan foydalanish o‘rinlidir. Albatta, bu maqsadni amalga oshirish uchun pedagogik va pedagogik fanlarni o‘zlashtirishda uzviylikka e’tiborni qaratish, vatanparvarlik, fuqarolik tarbiyasi, shaxs ma’naviyatini shakllantirishga rag‘batlantirish uning asosiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Bu ta’sir o‘zaro hamkorlikda ta’sir ko‘rsatish – ishontirish tarzida amalga oshirilsa, majbur etish usuli zinhor qo‘llanilmasa, tarbiyaviy ta’sir kuchi shunchalik to‘laonli bo‘ladi. Bunda: 1) kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish uchun rag‘batlantirish metodini qo‘llash orqali amalga oshirilsa, 2) talaba muayyan xulq-atvor me’yorini hosil qilishga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Bunday ta’sir shaxs ongini shakllantiruvchi (ishontirish

metodlari); shaxs faoliyatini tashkil etuvchi va ijtimoiy xulqni ruvojlantiruvchi (faoliyatida mashq qildiruvchi va odatlantiruvchi metodlar); shaxs faoliyati va xulqini shakllantiruvchi metodlar (ragʻbatlantirish va jazolash metodlari) asosida amalga oshiriladi.

Bu kabi tarbiya metodlari bilan birgalikda mashgʻulotlarning interfaol metodlaridan foydalanish ancha yuqoriroq natijani qoʻlga kiritishga yordam beradi.

Tajriba sinov ishlari natijalaridan shu narsa maʼlum boʻldiki, talabalarda auditoriyadan tashqari mashgʻulotlarda tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda quyidagi tamoyillarga rioya etish muhimdir:

1. Auditoriyadan tashqari oʻtkaziladigan taʼlim jarayonini aniq maqsadda tashkil etish, uning natijalarini xolis baholash, tarbiyaviy jarayonda tutgan oʻrni aniqlash, uni pedagogik tahlil etish va baholash.

2. Bu jarayonni ilmiy, uzluksiz, izchil, tizimli asosda tashkil etish.

3. Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda samarali interfaol metodlarini izlab topish va taʼlim-tarbiya jarayonida qoʻllash.

4. Pedagogik fanlarni oʻqitishda taʼlim-tarbiya jarayonining (auditoriya va auditoriyadan tashqari mashgʻulotlar) uzviyligini taʼminlash.

5. Taʼlimda interfaol metodlar bilan bir qatorda ananaviy metodlar, ilgʻor pedagogik texnologiyalardan oʻz oʻrnida samarali foydalanish.

Demak, auditoriya va auditoriyadan tashqari ishlar jarayonida pedagogik bilimlar asosida talabalar tashkilotchilik mahoratini shakllantirish talabalar kasbiy tayyorgarligining uzviy qismi sanaladi. Oʻz navbatida bu hol talabalarni maʼnaviy–axloqiy shakllantirishning ilmiy pedagogik asoslari yaratilganligi hamda maqsadning amalga oshirishda maʼlum shart-sharoitlar yaratilganligidan dalolat beradi.

Ilmiy-tadqiqot soʻngida quyidagi xulosalarga keldik:

Talabalarning auditoriya va auditoriyadan tashqari tadbirlarni tashkil etish jarayonida tashkilotchilik mahoratini shakllantirishda interfaol usullar shuningdek pedagogik turkum fanlarning mazmun, mohiyati katta imkoniyatlarga ega.

Kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirish ta'lim tarbiya jarayoniga uzviy va tizimli yondashishni talab etadi.

Bu sohada ta'lim tizimiga texnologik yondashuv, ilg'or, interfaol usullardan foydalanish maqsadga muvofiq keladi.

Uzluksiz ta'lim tizimida kollej talabalarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratini shakllantirishga qaratilgan tajriba sinov ishlarining samarali natija berishi yuqorida sanab o'tilganlar bilan izohlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent «Ma'naviyat» 2008. – 176 bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent. 1998. -64b.
3. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqorolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston respublikasi Oliy majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 12.11.2010.
4. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 2- jild.
5. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. 3- jild.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. – Toshkent: O'zbekiston, 1997. 5- jild.
7. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. – Toshkent: O'zbekiston, 1999.
8. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, taraqqiyot shartlari va kafolatlari. – Toshkent: O'zbekiston, 1998.
9. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni. – T., 1997.
10. O'zbekiston Respublikasi «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi». – T., 1997.
11. G'ulomov S.S. “Oliy ta'lim” me'yoriy hujjatlar to'plami. Toshkent – 2011y.
12. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Toshkent – 2010. 542bet.
13. Abu Ali ibn Sino imorat vatan bikat. – Texron., 1993, 13-15-16-byetlar.
14. Axrorov Yu., Qobilova R. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pyedagogik qarashlari. – Samarqand: SamDU nashri, 1999. – 57 b.
15. Axmedov B., Aminov A., va b. Amir Temur o'g'itlari. – Toshkent: «Navro'z» nashriyoti, 1992. – 63 b.

16. Axrorov Yu.A. Pyedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamDU nashri, 2002. -110 b.
17. Ishmuxamedov R.J. O'quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash uslubiyati. Uslubiy ko'rsatma. – Toshkent, 2008. – 67 b.
18. Ochilov M. O'qituvchi – qalb me'mori. – Toshkent: O'qituvchi, 2001.
19. Gonobolin D.N. O'qituvchi haqida qissa. – T.: O'qituvchi, 1969. –270 b.
20. Сеченов И.М. Избранные философские и психологические произведения. – М., Госполитиздат, 1947. – 157 б.
21. Павлов И.П. ППС., III том, 1-2-китоб. – М., – Л., ФА нашриёти, 1951. 310-бет.
22. Фортунатов Г.А., Петровский А.В. Психология. – М., 1956. 101-бет.
23. Кони А.Ф. Советы лекторам, «Об ораторском искусстве». – М., Политиздат, 1958, 120-127-бетлар.
24. Ушинский К.Д. Собр. соч., 8-том. – М., – Л., РСФСР ПФА нашриёти, 1950, 46-48-бетлар.
25. Axmedov A.A. Ilmiy tadqiqot asoslari. –Qarshi, 2002.
26. Beruniy A. Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – T., 1992.
27. Musurmonova O. O'qituvchilar ma'naviy madaniyatini shakllantirish. – T., 1993.
28. Pedagogika (Ma'ruzalar matni). Prof. G'aybullayev tahriri ostida. – T.: ToshDU nashri, 1999.
29. Rahimov S.R. Abu Ali ibn Sino: Ta'lim va tarbiya haqida. – T.: O'qituvchi, 1967.
30. Толстой Л.Н. Педагогические сочинения. – М.: РСФСР ПФА нашри, 1953. 405-406-бетлар.
31. Xayrullayev M. Forobiy ruhiy proseslar va ta'lim-tarbiya to'g'risida. – T.: O'qituvchi, 1967.
32. Xayrullayev M. O'yg'onish davri va Sharq mutafakkirlari. – T., 1971.
33. Xayrullayev M. «Abu Nasr Forobiy». – T., 1986.

34. Shodiyev N. va b.q. Test nazorat uslubiyati. – Samarqand, 1997.
35. Shodiyev N. va b.q. Temuriylar davri ilmiy myerosidan milliy tarbiyaviy jarayonda foydalanish. «Amir Temur ilm-fan va madaniyat homiysi» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2-qism. – Samarqand, 1996.
36. Shodiyev N. Maktab o'qituvchisi va milliy tarbiya «Kadrlar tayyorlash miliy dasturi» va malaka oshirish tizimi muammolari. – Samarqand, 1998.
37. Shodiyev N. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik merosi xorij zamonaviy ta'lim texnologiyasida. «Xorijiy ta'limning dolzarb muammolari» mavzusidagi xalqaro konferensiya materiallari. – Samarqand, 1999.
38. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig. – T., 1972. -239 b.
39. K.Hoshimov, S Ochil, O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. – T. O'qituvchi 1995.460bet.
40. Qayumov A. Abu Rayxon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino. T., 1987.
41. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T: Fan, 1994.
42. G'oziyev N.R. Ta'lim tarbiyaning amaliy yo'nalishi. – T., 1986.
43. G'aybulayev N.R. Barkamollik, mahsuldorlik – taraqqiyot kaliti. – T., 1995.
44. G'oziyev E. Tafakkur psixologiyasi. – T., 1990.
45. Hasanova O., Hasanboyev J., Hamidov X. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1997.
46. Hasanboyeva O., Pedagogika tarixidan xrestomatiya. – T.: O'qituvchi, 1993.
47. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M., Hasanov R. Pedagogika tarixi. – T.: O'qituvchi, 1996.
48. www.ziyonet.uz
49. www.referat.uz
50. www.google.uz

ILOVALAR

1-ilova

Samarqand 1-son Pedagogika kolleji _____ guruhlarida ijtimoiy pedagogik tashkilotchilik mahoratining rivojlanganlik darajasini aniqlash uchun tuzulgan anketa so'rovnomasi:

1. Tashkilotchilik bu –

- a. kishining ongli faoliyatlarida namoyon bo'ladi.
- b. qobiliyatning bir turi
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

2. Talabalarda tashkilotchilikni shakllantirish –

- a. kerak, chunki o'qituvchining o'quvchilarni dars jarayoniga nisbatan motiv uyg'ota olishi bu uning tashkilotchiligiga bog'liq.
- b. tashkilotchilik qobiliyatisiz ham dars o'tsa bo'ladi.
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

3. Tashkilotchilikda qobiliyatlarning o'rnini qanday izohlaysiz?

- a. ahamiyatsiz
- b. muhim
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

4. Ilk qobiliyat kurtaklari qachon va qanday sharoitda paydo bo'ladi?

- a. qobiliyat kurtaklarining o'sish davri maktab va boshqa ta'lim muasasalaridagi tadbirlarda rivojlanadi

b. qobiliyat kurtaklarining ilk o'sishi katta yoshdagi bolalarda "oiladagi mehnat taqsimoti tufayli o'zidan kichik bolalarga nisbatan qandaydir burchga ega bo'lish tufayli ro'y beradi.

c. o'zingizning fikr mulohazangiz

5. 1917 yildan 1991 yilgacha o'qituvchilarda tashkilotchilik qobiliyati qay darajada rivojlangan edi;

a. a'lo darajada

b. sust (avtoritar) darajada

c. o'zingizning fikr mulohazangiz

6. Tashkilotchilikning ilk kurtaklari qachon paydo bo'ladi?

a. oilada, maktabda, dars jarayonida, ko'chada, laboratoriya ishlari jarayonida tashkilotchilikning ilk kurtaklari paydo bo'la boshlaydi.

b. tashkilotchilik qobiliyatlarining ilk kurtaklari turli o'yinlarning roli katta bo'lib bunday o'yinlar tufayli qisman tashkilotchilik kurtaklari paydo bo'la boshlaydi.

c. o'zingizning fikr mulohazangiz

7. Pedagogik qobiliyatni o'stirishda o'qituvchi asosan nimalarga e'tibor berish kerak?

a. Pedagogik qobiliyatni o'stirishda o'qituvchining o'z fani bo'yicha etarli bilimga ega bo'lishi va umumiy saviyada tinmay ishlashi lozim.

b. Pedagogik qobiliyatni o'stirishda o'qituvchi siyosiy, ijtimoiy, badiiy adabiyotlarni o'rganish lozim.

c. o'zingizning fikr mulohazangiz

8. Kuzatuvchanlik bu –

- a. bir ko'z tashlashda buyum va hodisalardagi muhim lekin ko'zga kam tashlanadigan narsalarni payqab olishi.
- b. ob'yekt va sub'ekt xususiyatlarini payqab olish.
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

9. Konstruktiv faoliyat bu –

- a. Ishni tashkil etish va o'quvchilarni dars va darsdan tashqari vaqtlarida o'zlarini tutishlari.
- b. Oquvchilarga beriladigan materialni tanlash haqida bu materialni o'quvchilarning yoshi individual xususiyatlariga moslab qayta ishlab chiqish va shu asosda darsda suhbat tashkil etish, tarbiyaviy ishlar olib boorish, oquvchilar shaxsini bilim doirasini, dunyoqarashini aniqlashdan iborat.
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

10. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lidagi qiyinchiliklarni yengish uchun kishi nima qilmog'i lozim?

- a. Kerakli faoliyatga intilishi zarur.
- b. Irodaviy kuch sarf qilmog'i lozim.
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

11. Tashkilotchilik faoliyati bu-

- a. Ishni tashkil etish o'quvchilarni dars va darsdan tashqari vaqtlarida o'zlarini qanday tutishiga o'rgatish, jamoaviy va yakka yakka mashg'ulotlarga hamda mehnatlariga, rahbarlik qilish, o'z faoliyatini tashkil etishdan iborat.
- b. Tashkilotchilik bu kishining ijtimoiylashuvi
- c. o'zingizning fikr mulohazangiz

12. O'qituvchining irodaviy sifatlari tashkilotchilikning asosi bo'la oladimi?

a. ha

b. yo'q

c. o'zingizning fikr mulohazangiz

Guruh _____ **F.I.SH.**_____ **Imzo**_____

Mazkur anketa so'rovnoma tajriba-sinov ishlarining boshi va oxirida talabalar e'tiboriga havola etildi. Tajriba-sinov ishlari boshi va yakunida tajriba hamda nazorat guruhi talabalari tomonidan qayd etilgan ko'rsatgichlar taqqoslandi hamda matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi. Mazkur holat biz tomonimizdan ishlab chiqilgan va tajriba-sinov ishlari jarayonida amaliyotda sinovdan o'tkazilgan uslubiyatning samaradorligini tasdiqladi.